

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI ANDIJON DAVLAT
UNIVERSITETI FILOLOGIYA FAKULTETI
BITIRUVCHISI
DADAXONOVA FERUZANING**

**“SAIDA ZUNUNOVA IJODIDA QAHRAMON
YARATISH TAMOYILLARI”
mavzuidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

ILMIY RAHBAR: Dots. S. Qurbonov

ANDIJON - 2012

**“Himoyaga tavsiya etaman”
Ilmiy rahbari:**

Dots.S.K.Qurbonov

“-----”-----2012

**“Himoyaga qo‘yishga ruxsat
beraman”
Kafedra mudiri:**

prof.S.Mirzaeva

“-----”-----2012

**“Himoyaga tavsiya etaman”
Rasmiy taqrizchi:**

O.Qambarova

“-----”-----2012

**“Davlat Attestatsiya Hay’atiga
Himoya uchun taqdim etaman”
Fakultet dekani:**

f.f.n. Z.Qodirov

“-----”-----2012

Mavzu: Saida Zununova ijodida qahramon yaratish tamoyillari

REJA

Kirish

I BOB

Birinchi fasl. Yangi o‘zbek adabiyotida xarakter yaratish uslubi

Ikkinchi fasl. Nasrda va nazmda tanho ijodkor

II BOB

Birinchi fasl. Saida Zununova asarlarida kurashchan qahramon talqini

Ikkinchi fasl. Lirik qahramon va shoira shaxsi munosabati

III BOB

Birinchi fasl. Shoira dostonlarida ijodkor shaxsiyati ifodasi

Ikkinchi fasl. Qatag‘on qilingan qissa-bugungi kunning asari

Xulosa

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Muhtaram Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari deb ta'riflanishi bejiz emas.

Xalqimiz orasida mana shu g'oyat mashaqqatli sohaga butun hayotini va noyob iste'dodini bag'ishlab, adabiyotimiz xazinasidan munosib o'rin egallagan o'lmas asarlar yaratgan buyuk so'z san'atkorlari (ularning barcha-barchasining nomlari zikr etish, albatta, ko'p vaqtni talab qilgan bo'lur edi) yetishib chiqqani bilan barchamiz haqli ravishda faxrlanamiz.

Adabiyot: so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib keladi. Bunda xalqimiz uchun xizmat qilgan shoir va yozuvchilarning o'rni beqiyosdir. Zamonamizning serqirra ijodkorlaridan biri, nasrda va nazmda tanho adibamiz Saida Zununova ana shunday zabardast qalam sohiblaridan biridir.

Shu o'rinda Yurtboshimizning ayollar haqida aytgan quyidagi so'zlarini tilga olib o'tishni lozim topdik:

“Oilani ham, jamiyatimizning ham birlashtirib, unga fayzu barokat kiritadigan, xonadonlarimizni mehr-muhabbat, nafosat, ezgulik nuri bilan munavvar qiladigan zotlar ham aslida mo‘‘tabar onalarimiz, munis opa-singillarimizdir.¹

Chindan ham ayollarimizning oilada tutgan o'rni beqiyos. Oqila, go'zal ayollar o'zlarining g'amxo'rliqi, mehribonligi, qalbi daryoligi bilan oiladagi, qolaversa jamiyatdagi muvozanatni, poklik, halollik, samimiyat va adolat muhitini saqlab turadilar.

Ulug' donishmandlar Vatanga eng munosib ta'rif izlaganda, uni ona siymosiga qiyos etganlarida katta ma'no bor. Dunyoda “muqaddas” degan so'zga eng munosib zot ham-Onadir.

Onani e'zozlash-bizning millatimiz, xalqimiz uchun qadriyat darajasiga ko'tarilgan fazilat. Chunki ayollarni qancha ulug'lasak, hayotimizning chirog'i, umrimizning guli deb e'zozlasak, demakki, oilamizni, Vatanimizni e'zozlagan bo'lamiz”.¹ Prezidentimizning ayollarga bunchalar hurmat-ehtirom ko'rsatishlari bejiz emas. Chunki xalqimizning buyuk tarixida o'zining jasorat va matonati, aql-zakovati, nafosat va nazokati bilan o'chmas nom qoldirgan To'maris, Bibixonim, Gulbadanbegim, Zebinniso, Nodira, Uvaysiy, Anbar otin va boshqa yuzlab ayollarimizning nomlarini hamisha ehtirom bilan tilga olamiz. Zabardast qalam sohibasi Saida Zununova ana shu buyuk momolariga munosib voris bo'la olgan, oilani ham,

¹ И.Каримов Юксак маънавият-енгилмас куч. Т., 2008 й., 136-бет.

¹ Президент И.Каримовнинг 1998 йил 5-декабрда Конституциянинг олти йиллигига бағишланган тантанали мажлисда сўзлаган нуткидан. Аёлга эҳтиром тўплам. Т., “Ўзбекистон 1999, 11-бет.

ijodni jamoat ishlarini va davlat ishini ham bir xilda olib borishga erishgan risoladagi ayollardan edi. Boisi na hayot sinovlari, na cheksiz qismat ish va tahqirlashlaru tazyiqlar uning irodasini buka oladi. Saida Zununova har qanday sharoitda ham oilasiga, sevimli turmush o'rtog'i Said Ahmadga sodiq qoldi. Oilasini asrab, uning obro'si uchun kurashdi. Saida Zununova ayol qalbi navolarini nasrda va nazmda chiroyli qilib kuylay olgan iste'dodli ijodkordir. Boisi uning hayotiy hikoyalari, qissalari, she'r va dostonlari adabiyotimizning eng sara namunalariga, kitobxonlarimizning sevimli asarlariga aylangan. Saida Zununova asarlarini unisi yaroqsiz, bunisi yaroqli deb turkumlarga ajratish qiyin. Ularning har biri kitobxon uchun hamon aziz va ardoqli. Xonandalar tilidan tushmay qo'shiq qilib kuylanib kelinmoqda.

XX asr o'zbek adabiyotida Saida Zununovaning o'z o'rni bor. Nasrda va nazmda barakali ijod qilgan Saida Zununovaning asarlarini tadqiq etish, uning ijodida qahramon yaratish tamoyillarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va baholash mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari. Mazkur ishda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik:

- Saida Zununova ijodini o'rganish va uning o'ziga xos murakkab tadrijini aniqlash;
- Saida Zununova asarlarida poetik obrazlar va ularda milliy-falsafiy tafakkur ifodalari va uning tadrijini aniqlash, umuminsoniy mavzu-g'oyalar talqinida qahramonlarning tutgan o'rnini ko'rsatishga intilish;
- Saida Zununova qahramonlarining mushtarak tomonlarini ko'rsatib berish;
- Shoira ijodida inson ruhiyatining ifodasini tahlil qilish;
- Saida Zununovaning qahramon harakterini ochishdagi o'ziga xos uslubini tahlil qilish.

Ishning metodologik va nazariy asoslari. Respublikamiz Prezidentini adabiyot va ilm-fan homiysi desak, yanglishmagan bo'lamiz. Boisi Prezidentimiz hamisha adabiyot ahillariga, shoir va yozuvchilarimizning ijodiga hurmat bilan qarab, bu borada o'zining qimmatli fikrlarini bildirib kelmoqda. Yurtboshimizning ilm-fan, adabiyot va ma'naviyat haqidagi bir qator asarlari, ma'ruza va nutqlarida ilgari surilgan qoida va xulosalar biz uchun metodologik va nazariy manba vazifasini bajaradi.

Bitiruv malakaviy ishimizni yozish jarayonida V.Belinskiy, L.Timofeev, G.Pospelov, M.Gasparov kabi olimlarning estetik qarashlariga tayanildi. I.Sulton, O.Sharofiddinov, S.Mamajonov, N.Karimov U.Normatov, B.Nazarov, A.Rasulov, I.G'afurov, N.Rahimjonov, D.Quronov, K.Yo'ldoshev kabi o'zbek olimlarning ilmiy qarashlariga murojaat qilindi.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Biz ishimizda XX asr o'zbek adabiyotining taniqli ijodkorlaridan biri Saida Zununova ijodining o'ziga xos xususiyatlari, uning qahramon yaratishdagi o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etishga harakat qildik. Ularning

boshqa qahramonlardan qaysi fazilatlari bilan farq qilishlari haqida o'z fikr-mulohazalarimizni bildirdik. Adibaning badiiy-estetik tafakkuri taraqqiyotdagi betakror o'rnini ko'rsatib berishga harakat qildik. Ishimizda keltirilgan ma'lumotlardan va tadqiqot materiallaridan hamda unda keltirilgan nazariy xulosalardan maktab, litsey va kollejlarda adabiyot nazariyasi va hozirgi o'zbek adabiyoti fanini o'qitish, Saida Zununova hayoti va ijodini o'rganish, maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkin. Ishdagi Saida Zununova haqida va uning ijodi haqidagi fikrlar, nazariy umumlashmalar adiba hayotini o'rganishda yaqindan yordam beradi. Shuningdek, ishimizdan maktablar uchun dars ishlanmalari tuzishda, Saida Zununova ijodiy portetini yaratishda va uning hayoti va ijodiga bog'lab turli tadbirlar o'tkazishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi. Tadqiqotimiz kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB

Birinchi fasl .Yangi o‘zbek adabiyotida xarakter yaratish uslubi

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, adabiyot tirikchilik yumushlariga aralashib, ijtimoiy-siyosiy ta’sir ko‘rsatish vositasiga ham aylana boshlagach, o‘zbek adabiyotida ham publitsistik ruh paydo bo‘lgan. Mavzu ko‘lamining kengayishi asar qahramonlarini o‘zgartirdi. Endilikda yerdagi oddiy odamlar ham badiiy tasvir ob’ektiga aylana boshlagach, qahramon yaratish borasida yangicha usul shakllana boshladi. Qahramonlarning o‘zgarishi natijasida badiiy adabiyotga o‘zgacha ruh, bo‘lakcha muammo, boshqa hayot yo‘sini kirib keldi. Bu esa o‘z navbatida, badiiy til va ifoda tarzida ham tub o‘zgarishlar bo‘lishini taqozo etdi. Mana shu belgilar yangi davrning yangi adabiyoti yuzaga kelganligini ko‘rsatardi.

O‘zbek xalqi tarixining bir bo‘lagi ijtimoiy yo‘nalishiga ko‘ra milliy uyg‘onish davrining ikkinchi bosqichi edi. Bu jarayon faqat badiiy adabiyot bilan cheklanib qolmagan, balki birinchi navbatda ijtimoiy ongda ro‘y bergan hodisa edi. Bu haqda: “Milliy uyg‘onish birgina adabiyot doirasida qolgani yo‘q, ijtimoiy turmushning barcha-barcha qatlamlarini qamrab oldi” deb yoziladi “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” darsligida.¹ Millatning komil farzandlari umummilliy miqyosda uyg‘onish kerakligini anglab yetgandilar.

Agar o‘zbek mumtoz adabiyoti xoslarning ko‘nglini uyg‘otishni mo‘ljallagan bo‘lsa, yangi o‘zbek adabiyoti ommaning fikrini uyg‘otishni maqsadga aylantirdi. Fikrni uyg‘otishning birdan-bir yo‘li esa ma’rifat tarqatish edi. Yangi o‘zbek adabiyoti yaratilishidanoq butun ommani ma’rifatli qilishga yo‘naltirildi. Atrofga nazar solish, dunyo bilan bo‘ylashish, o‘z hayotini o‘zgalarniki bilan solishtirish orqali millat ahli tafakkurini o‘zgartirish, uni qoloqlik uyqusidan uyg‘otish, bu adabiyotning maqsadi edi. Shunga ko‘ra yangi o‘zbek adabiyoti boshda ma’rifatchilik sifatida paydo bo‘ldi. Bu adabiyot millatda yurtchilik sezimlari uyg‘otib, o‘zligini anglashga kuchli ehtiyoj sezilganda dunyoga keldi. Zotan, ma’rifat fikrni uyg‘otish omilidir.

Alohida estetik hodisa sifatida XIX asrning oltmishinchi yillarida shakllanib, bugunga qadar davom etayotgan yangi o‘zbek adabiyoti hozirgacha o‘z taraqqiyotining a) ma’rifatchilik adabiyoti; b) jadid adabiyoti v) sho‘ro davri adabiyoti; g) mustaqillik davri adabiyoti singari bosqichlarni bosib o‘tdi. Bu bosqichlarning har birida yangi o‘zbek adabiyoti o‘ziga xos sifat va xususiyatlarga ega bo‘lganki, ularning har bir davri o‘ziga xos qahramonlarni yaratdi.

O‘zbek adabiyoti ma’rifatchilik yo‘nalishi dastlab Komil va Donish ijodida bo‘y ko‘rsatgan bo‘lsa, keyinchalik Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz, Dilshod Barno, Anbar otin singari adiblar ijodida alohida g‘oyaviy-estetik yo‘nalish tusini oldi. Shu yo‘sinda nafis so‘z xalq turmushiga xizmat qildirildi. Mumtoz adabiyotimiz uchun badiiy so‘zning estetik jilvasi,

¹ Б.Қосимов ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Т., “Маънавият”, 2004, 3-бет.

ya'ni adabiyotning o'zi maqsad edi. Yangi o'zbek adabiyoti esa xalqqa ma'rifat tarqatish, uning hayotini yaxshilash maqsadiga erishishning vositasi aylantirildi. Ma'rifatchilik adabiyoti iqtisodiy qoloqlik, ijtimoiy tanazzul, siyosiy boshboshdoqlik, huquqiy tengsizlikdan qutilishning birdan-bir yo'li sifatida ma'rifat tarqatishni ko'rdi. Agar mumtoz adabiyotning qahramoni komil inson bo'lsa, ma'rifatchilik adabiyotning qahramoni ma'rifatli shaxs edi.

Aytish kerakki, garchi ma'rifatchilik adabiyotining maqsadi, vazifalari, tasvir ob'ekti, mavzular ko'lami, qahramonlari o'zgargan bo'lsada, badiiy tasvir vositalari, ifoda yo'sinlari turli janrlari jihatidan mumtoz adabiyotdan ham juda ham uzoqlashib ketmadi. Ma'rifatchilik adabiyoti yangi o'zbek adabiyotining ikkinchi bosqichi edi. U ko'p asrlik milliy an'analar shaklidagi o'z ichki qonunlari asosida rivojlanib kelgan mumtoz adabiyot bilan tashqi jahoniy ta'sirlarga berilgan, to'lig'icha ijtimoiy yo'nalish kasb etgan jadid adabiyoti o'rtasida estetik ko'prikk bo'ldi. Bu adabiyot millat ruhiyatini, dinini jadidchilik g'oyalarini qabul qilishga tayyorladi.

Tariximizda yetmish to'rt yillik iz qoldirgan sho'ro davri uning manfaatini ifoda etadigan adabiyotni ham yuzaga keltiradi. Kuchli darajada mafkuraviy-siyosiy sifatga ega bo'lgan bu adabiyot yangi o'zbek adabiyoti atalish hodisaning bir ko'rinishi edi.

Sho'ro tuzumi turli-tuman vositalar bilan o'lkada o'z hukmronligini mustahkamlagach, uning adabiyot borasidagi siyosati ashaddiylashgan, jangari tus olgan 30-50 yillarda adabiyot mafkuraning biri ko'rinishi sifatida to'lig'icha tuzum va hukmron siyosat xizmatiga yo'naltirildi. Tuzum nimani, qanday, qachon yozish kerakligini belgilab bergani uchun adabiyot mafkuraning yugurdagiga aylantirildi, ijod erkinligi bo'g'ildi. Badiiy ijod sinfiy kurashning bir ko'rinishi sifatida talqin etiladigan bo'ladi. Tuzumga keragiday xizmat qilmaydigan ijodkorlar jismonan ham yo'q qilinadi. Lekin asl iste'dodning qudrati shundaki, u har qanday to'siqni yengib o'tib, zamon kishisi ruhiyati qirralarini jilolantira oldi. Shuning uchun ham iste'dodli adiblar yozgan bitiklari uchun o'z jonlari bilan tovon to'laganliklariga qaramay, sho'ro davrida ham bir qator badiiyati yuksak asarlar paydo bo'ldi. XX asrning 60-80 yillarida xalqlar jallodi bo'lmish Stalin vafot etgach, sovet kishilarining bo'yniga solingan sirtmoq bir qadar bo'shashdi. Bemalolroq nafas olish, fikrni erkinroq bildirish imkoni paydo bo'ldi. Sho'ro tuzumi o'zini zo'rlab bo'lsa-da, "insoniyoq qiyofa" kasb etishga urindi. Shuning uchun ham bu bosqichda o'zbek adabiyotida fikr aytish, aytilayotgan fikrni turlicha badiiy shakllarda ifodalash borasida birmuncha erkinlikka ega bo'linadi. Shu bois bu davrda siyosatga zid keladigan fikr ishora bilan, ramzlar orqali ifodalash, "Ezop tili"da yozish ancha rivojlanadi. Lekin badiiy adabiyot davlatniki bo'lib ijod erkinligi orzuligicha qolaverdi.

Ana shunday muhitda Saida Zununova o'zining bir qator asarlarini yaratdi. Saida Zununova kabi jasur va iste'dodli ijodkorlar millat ruhiyatida o'zlikni anglash orqali

mustaqillikka ma'naviy jihatdan tayyorladi va istiqloq adabiyotining yuzaga kelishiga zamin yaratishiga munosib hissa qo'shdilar.

Ikkinchi fasl. Nasrda va nazmda tanho ijodkor

Istiqloq yillarida tariximizga, ma'naviy merosimizga munosabat tubdan o'zgardi. Mustabid tuzum davrida toptalgan milliy-adabiy qadriyatlarimizni tiklash borasida qator ishlar amalga oshirildi. Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon singari qatag'on qurbonlari ijodini yangicha baholash, talqin etish bilan barobar yakkahokim mustabid mafkura, sho'ro adabiyoti siyosati ta'siri, zug'umi, tahdidi ostida qalam tebratgan G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor singari so'z ustalari ijodiy merosini qaytadan xolis o'rganish jarayoni boshlandi. Badiiy asarga yangicha talablar asosida yondoshish, so'z san'ati tarixiga dahldor masalalarni tadqiq etish va haqqoniy yoritib borish adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridan bo'lib turibdi. Chunki istiqloq yillarida odamlar ongu tafakkurida tub o'zgarishlar ro'y berdi, ularning uzoq yillar mobaynida komunistik va sho'ro mafkurasi tamoyillari asosida shakllantirilgan fikrlash tarzi, dunyoqarashi, bir so'z bilan aytganda, odamlarning o'zi o'zgardi.¹

XX asr o'zbek adabiyoti rivojida yuqorida tilga olingan adiblar Zulfiya, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Said Ahmad va Asqad Muxtor singari adabiy avlod vakillari qatorida nasrda va nazmda tanho bo'lgan Saida Zununovanning ham muayyan xizmati bor. Shoir murakkab va tahlikali zamonda ta'qibu tazyiqlar ostida yashab, ijod qildi. Uning ijodiy merosi ayrim ziddiyatlardan xoli bo'lmagan holda o'ziga xosligini, tabiiy nafosatini saqlab qola olganligi bilan qadrlidir. Bunga shoirning davr farzandi ekanligi ham, hukmron partiya a'zosi bo'lganligi ham monelik qila olmadi. U o'tgan asrning ikkinchi yarmidagi adabiy o'zgarishlar jarayonida, Abdulla Qodiriy iborasi bilan aytganda "shaxsi butun ijodkor" darajasiga ko'tarildi. Said Ahmad qatag'onga uchrab, nohaq qamalgan yillarda og'ir kunlarni boshdan kechirdi, ammo insoniyligini yo'qotmadi, e'tiqodida sobit turdi, qiyinchiliklarga qarshi mardona kurashib, ijodkorlik, yaratuvchilik pozitsiyasidan chekinmadi. Shoirning aksar she'rlari shaxsiy kechinmalari, qalb tug'yonlarining nidosi, o'z umrining parchalari, ammo ularning shaxsiyatining tor qobig'ida qolib ketmadi. Barcha zamonlarda ham birday sanalgan insoniy tuyg'ularni tarannum etib, kitobxon ma'naviy-estetik dunyosini boyitishga xizmat qilmoqda. Shoiraning 1962 yilda yaratilgan "Tomchilar" she'ri bunga misol bo'la oladi. She'rning lirik qahramoni tabiat musaffoligi haqida yurakdan qayg'uruvchi jonkuyar inson. U tabiatning musaffo bo'lishini istaydi. Tabiatga qo'ngan har bir gardni kipriklari bilan supirishgada tayyor tabiat shaydosi.

Ey, billur tomchilar, sizlar qay yoqdan,

Qay yoqlardan kelding, aytgan, aziz qor?

¹ И.А.Каримов Ўзбекистоннинг 16 йиллик тараққиёт йўли. // "Халқ сўзи" 2007, 31 август.

*Chindan shaffofmisiz, chindan oqmisiz,
 Atom zahrasidan yiroq, pokmisiz?
 Okean ustidan suzgan bulutlar
 Olib kelmadimi o‘z qanotida?
 Shamol haydab kelgan bo‘lmasin tag‘in
 O‘sha tomonlardan uchqur otida?
 Yo‘q, shoshmang, qayga siz?
 Yo‘q, shoshmang, to‘xtang!
 Bolamdan sizni kim ayirmoqchi, kim?
 Uning sho‘xligiga hamroh bo‘lingiz,
 Yuz, sochlarida porlang, qo‘ninggiz,
 Yo‘q, sizni bulg‘olmas, bulg‘olmas hech kim!
 Bugun shuning uchun tashvishda olam,
 Notinchdir bog‘-rog‘lar, ellar notinchdir.
 Notinchdir sayyohlar, giyohlar tamom,
 Yaproqlar oshig‘i-yollar notinchdir.
 Gullarning labida shubhadan o‘kinch,
 Ayniqsa onalar uyqusiz notinch.
 Sizning qatranggizga dog‘ tushirsa kim,
 Bugun tabiatning qahriga mahkum.
 Xalqlarning g‘azabi qo‘ymaydi omon,
 Xalqning g‘azabidan nima bor yomon?¹*

Bahor, tabiat mavzulari shoiraning eng sevimli mavzularidan biri edi. Bahor haqida Saida Zununovachalik ajoyib misralar bitgan ijodkor kamdan-kam topiladi. Shoirachin ma’noda bahor va baxt shaydosi edi. Buni shoirning “Bahor” she’rida ham ko‘rish mumkin:

*Husningning menchalik shaydosi yo‘qdir,
 Menchalik to‘ymagan gadosi yo‘qdir.
 Ko‘kda o‘yin qilgan sho‘x qaldirg‘och ham,
 Yaxshilik yugirgan ham o‘t, og‘och ham,
 Bo‘tana suvlarning yuzidagi gul,
 Qirdagi lola-yu, tog‘dagi sunbul
 Qalbimga soladi rashksimon tuyg‘u,
 Qalbimga soladi rashksimon g‘ulu.²*

¹ С. Зуннунова танланган асарлар. Т., “Шарк”, 2001, 38-бет

² Ўша асар, 59-бет.

Taniqli tanqidchi, adabiyotshunos olim Ibrohim G'ofurov Saida Zununova haqida quyidagilarni yozadi:

“Saidaning boshiga o‘shanda Saidnikidan kam bo‘lmagan mushkul ish tushdi. Uni uyushma kotibiyatiga chiqarib “Xalq dushmani” Saiddan voz kechishni talab qildilar. O‘shqirdilar. Do‘q-po‘pisalar yog‘dirdilar. Yosh bo‘lsa ham ikki oliy institutni tugatgan, tahsil ko‘rgan, toshdan qattiq bardoshli qiz edi. O‘rtaga olib qistadilar. Voz kechmadi. Shunda ma’lum bo‘ldi: hech qanday kuch uni voz kechishga majbur qila olmasdi. Yo‘q u Saida bo‘lgani uchungina emas. Uning degani, tanlagani, taqdiriga qo‘shgani Said bo‘lgani uchun ham u hech qachon voz kechmas edi. Uzoq yillar o‘tgandan so‘ng, hatto Saida ham dorulbayoqoga ko‘chgandan so‘ng Said bu haqida yozdi. Yig‘lab-yig‘lab, jigari xun bo‘lib yozdi. Yillar yuragi tubida yotgan armoni, alam, muhabbatini qog‘oz sahifalariga to‘kdi. Uning Saida haqidagi xotiralarini Saidning eng go‘zal go‘zal dostoni, o‘lmas taronasi deyish mumkin.

Said va Saida...

Saida o‘sha tunlari yillar Saidni kutdi. Izlaridan yurdi. Tazyiqlar, ta’qiblar, xo‘rliklarning hammasiga chidadi va kutdi. Saidani taqdir kutish va bardosh uchun yaratganga o‘xshardi. Uzundan-uzoq romanlar, tarjimalarni uyqusiz tunlar, qutsiz kunlar o‘tirib mashinkaladi. Shunda mehnatni haloskor deb bildi. Keyin u hamma vaqt mehnatning go‘zalligi va insoniyligi haqida yozdi. Hamma qahramonlarini mehnatning turfa sinovlaridan o‘tkazdi. Barcha she’rlari, dostonlarini tuganmas mehnat ichra o‘zini o‘zi yaratgan va tuganmas mehnat yutib chiqqan odamlarning va ayniqsa xotin-qizlarning qo‘shig‘i kabi yaratdi.

Mehnat qila bilmaslik, birovning erki, ixtiyorini bo‘g‘ish, o‘zgalar va ularning baxtsizligi hisobiga kun ko‘rishlikni borib turgan ma’naviy qashshoqlik va razolati deb hisobladi. O‘sha qiyin elliginchi yillar uni shularga o‘rgatdi. U o‘zini Saidga bag‘ishlashga qaror qildi. Uning bu qarori 40-50 yillar orasida yetildi. Saidni tomom nohaq jazolaganlaridan so‘ng uning bu qarori qat’iy mustahkamlandi. U o‘z oldiga Saidni kutish va bu qiyinchiliklarni yengib o‘tish maqsadini qo‘ydi. U Saidning haqligi, begunohligi va o‘zining ham haqligi, to‘g‘ri ekanligiga ishonardi. Bu yemirib bo‘lmas ishonch Saidning noyob xarakteriga qo‘shilib, alohida poetik olamga aylandi va uning endigi yozadigon barcha asarlarining to‘qimasiga kirdi.

Saida va Said...

Saida sabrsizni tiz cho‘ktiradigan, irodasizni yetti bukib tashlaydigan, beburdni bir umrga yuzi qaro qiladigan o‘sha og‘ir sharoitda yuqori ko‘tarila oldi. Saidaning qonida bormikin qahramonlik?

Yoki bu qimmatli xususiyatni o‘zi duch kelgan juda og‘ir atmosferada unga zid insoniy kuch-qudrat sifatida ko‘ngil qa’rilarida tarbiyaladimikan?

Ayollarning qoni mahramlikdan qorishgan bo‘ladi. O‘rta asr Yevropa faylasufi Montenning essesindegi erlari o‘limga hukm etilgan rimlik ayollar ularga og‘ir damlarda qanday dalda berganliklari, qanday ibrat ko‘rsatganliklari va erlari bilan birgalikda o‘lim sharobini ichganliklari bejiz emas. Ayollar mahramlikda bunday fidoyilik, jon berishga tayyor bo‘ladilar.

Sen menga bemalol suyanavergil

Mushkulning, dardingni-borin to‘kib sol...

Bu Saidaning sal keyinroq yozgan satrlari. Faqat o‘ziga juda ishongan kishi shunday mahramona yozadi. Hayot qanday bo‘lmasin, unda mustaqil, mustahkam tura oladigan kishi shunday dilovarlik bilan yoza oladi va shunday mahramona harakatlarga doim qodir bo‘ladi.

Saida o‘z xarakteridagi mana shu teran insoniy fazilatni barcha asarlariga olib kirdi, qahramonlari taqdirida uni tahlil qildi, yozuvchi va inson, ayol va uning asarlari mana shunchalar biri-biroviga uyg‘unlashib ketgan edi.

Saidaning keyinchalik badiiy asarlarida urug‘ olgan sadoqat, mehr, vafo, oqibat singari ahloqiy me‘yorlar xususidagi qarashlari ham xuddi shu mahramlikdan quvvat olar edi.

Birga jarga tushgum va oshgum dovon

Do‘stsiz, sadoqatsiz hayotim hayot?!¹

Mana, oradan yillar o‘tdi. Bugun davralarda Saida Zununova ko‘rinmaydi. Lekin uning xotirasi ko‘ngillarda barhayot. Nozik nidolari, dilbar, noyob istioralari hamon she‘riyat muxlislarini hayratga solib kelmoqda. Ishqning o‘ynoqi havolariga to‘lgan g‘azallar to‘y-hashamlarda xofizlar tilidan tushmaydi:

Yo‘qlamagan har kunning yilcha bo‘lurmi, hay-hay,

Shunchalik shafqat bilmas dilcha bo‘lurmi, hay-hay.

Xush surating bir nafas tark etmas hayolimni,

Ko‘z shahlo-yu, qosh esa qilcha bo‘lurmi, hay-hay.

Har so‘zda yuz andisha qilgum donoligingdan,

Ko‘nglingning nozikligi qilcha bo‘lurmi, hay-hay.

Goh xanjar, goh asaldek so‘zlaringdan dog‘daman,

Jon olib, jon berguchi tilcha bo‘lurmi, hay-hay.

Qanoatda Saida filcha bo‘lurmi, hay-hay.¹

Bunday diltorlar satrlardan Saida Zununova ijodidan yana ko‘plab namunalar keltirishimiz mumkin. Shoiraning “Sen ham shundaymidig”, “Notavon ko‘nglim”, “Ko‘zlariga singib ketar vujudim”, “Subhidamda suvga chiqsam” kabi she‘rlari ana shular jumlasidandir.

¹ Иброҳим Ғофуров. “Саид Аҳмад ва Саида” Саида Зуннунова Танланган асарлар. Т., “Шарк”, 2001 йил. 6-7-бетлар.

¹ Ўша асар 115-бет.

Saida Zununova o'z asarlarida dam mehribon, dam vafodor, dam turmush ishlarida tangu tor, olchoq qaynonalar, o'z haqi uchun talasholmaydigan, o'ta andishali beozor, sochi supurgi kelinposhshalar, erini urush maydonlarida yo'qotgan va bir umr ko'zi yo'lda ularni kutgan sadoqatli beva ayollar, erki o'ta chekli xotin-qizlarni zo'r mahorat bilan tasvirladi, ularning nozik yelkalariga olgan og'ir yuklari haqida hikoyalar, dostonlar, she'r va qissalar bitdi. O'zbek ayollarining or-nomusi, uyat-andishasini qadrllovchi asarlar yozdi. O'zbek ayoli ma'naviyatning jon tomirlarini jon-jahdi bilan hikoya qildi. O'zbek qizlarining uzun sochlarini o'rab yurishini yoqtirgan shoira quyidagi satrlarni bitdi:

Sochim qora bo'lsa ,tim qora bo'lsa

Orqamda to'lg'anib tursa yurganda.

Bular shoiraning 40-50-yillardagi ideali edi. Shoir urish bevalarining vafolarida qanchalik insoniylik borligini haqqoniy satrlarda ulug'lovchi betakror asarlar yaratdi. Saida Zununova tasvirlagan ayollar haddan tashqari kamtarin edilar. Avvalo ularning hayotga qo'yadigan talablari ham kamtarin edi. Ular ko'p narsa istamaydilar. Oddiy narsalardan qanoatlanadilar. Ehtiyojlar ko'p emas. Ko'p bo'lsalar ham yuzaga chiqarmaydilar. Shoiraning juda ko'p qahramonlarida shunday tortinchoqlik, uyatchanlik ko'zga tashlanib turadi. Bu yozuvchi o'ylab topgan narsa emas. U uzoq davom etgan tarixiy muhitning natijasi. Qolaversa, biz XX asrda xotin-qizlar emansipatsiyasini hamisha o'zimizga chala-yarim talqin qilib kelganimiz. Emansipatsiya har doim bosh qotiradigan masala. Ayolning to'la hajmdagi teng huquqlikka erishish va uning to'laqonli har tomonlama foydalanish bu hayotning ayniqsa biz yashab kelgan, bizga o'rganish bo'lgan hayotning to'la o'zgarishi yangilanishi va shular asosida g'alabasi bo'lar edi, albatta.

Ijodkor shaxs biografiyasi hayotiy voqealar yig'indisigagina bo'lib qolmay, balki shoir qalbida kechgan tuyg'ular manbai sifatida ham qoplanadi. Shu bois biror adib ijodi o'rganilganda uning tarjimai xoli ham nazardan chetda qoldirilmaydi. Badiiy asarning yaratilishiga turtki bo'lgan hayotiy voqealar va kechinmalarni o'rganish esa o'sha asar zahirida yotgan yashirin ma'no qatlamlarini ochishga yordam beradi. Adabiyotshunoslik ilmida struktural metod asoschisi sifatida tan olingan Yu. Lotman rus adibi Karamzinning tarjimai holini jiddiy o'rganish asosida yaratgan

“ Karamzinning kashf etish”gina emas, balki qalb biografiyasini yaratish ekanligini ta'kidlagan va B. Ugorovning fikrini, bunga to'la erishgan. Demak, ijodkor shaxs tarjimai xolini o'rganish va biografiyasini yaratishdan maqsad uning badiiy va publitsistik asarlariga asos bo'lgan hayotiy voqealarni qayta tahlildan o'tkazish hamda o'sha asarlarni tushinish uchun “kalit” topishdan iborat.

Iste'dod egasi kuchli shaxsiyatga ega bo'lsagina, muhit qarshisidagini yengib o'ta oladi. Qolaversa, muhitning o'zi unga mavzu berishi, o'zligini namoyon etishi uchun imkoniyatlar ochishi mumkin. Xuddi shu ma'noda murakkab zamon ko'rgiliklari, zamondoshlaridan ko'rgan tahqiru tazyiqlar Saida Zununova ijodida chuqur iz qoldirdi. Shoirani ikkinchi jahon urishi keltirgan mislsiz kulfatlarning guvohi. 50- yillar qatag'onining ham shohidi, ham jabrdiydasi bo'ldi. Hayotida o'chmas iz qoldirgan ikki tarixiy hodisa uning ijodkor va shaxs sifatida shakllanishida, asarlarining mazmun-mundarijasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Saida Zununovaning aksariyat she'rlarida muallif shaxsi bilan lirik qahramon juda yaqin yoki teng. Buni quyidagi satrlarda ham yaqqol ko'rish mumkin:

Kurashsiz, mehnatsiz shodlik kulguni

O'g'irlik mol deyman, qilaman hazar.

Kasbimning parchasi singmasa agar

Rozimasman birov hadya etsa zar. ¹

Said Ahmad "ushbu satrlar Saidaxonning she'rdagi chizilgan suratiga o'xshaydi"² deb yozgan. mazkur parchada shoirani xarakteriga xos xususiyatlarni ham, mashaqqatli yillarning dard-alamlari aks-sadosini ham ko'rish mumkin. Otasidan erta ajralgan shoirani hayotning naqadar beshafqat ekanligini, g'am-g'ussa, yo'qchilik nimaligini juda barvaqt anglagan, keyinchalik bu kechmishlarning badiiy ifodalari uning asarlariga jonlilik, hayotiy joziba bag'ishlagan.

Shoirani she'rlaridagi lirik qahramon, "So'qmoqlar" /Aziza/ qissasidagi, "Ona" /Nasiba/, "Ko'zlar" /Laylixon/ dramalaridagi, "Ruh bilan suhbat", "Alla" dostonlaridagi onalar obrazi muallif shaxsidan olganini tasdiqlaydi. Bu obrazlardagi kishini hayajonga soluvchi, kuchli taassurot qoldiruvchi insoniy fazilatlar, mehr-muhabbat shoiraning farzandiga va onasiga munosabatida ko'rinadi.

Turfa ranglardan birini yoqtirish va unga ko'proq intilish zavqlanish inson tabiatiga xos xususiyatlardan. Ayniqsa, nozik tuyg'ular va nafis ranglarni teran his qiluvchi, oddiy narsadan ham bir olam zavq oluvchi ijod ahlidan bu hol yanada kuchliroq namoyon bo'ladi. Masalan, Said Ahmad gunafsha rangni yoshligidan yaxshi ko'rar, uni ko'rganda yuragi hapqirib, to'liq qinlanib ketar ekan. Shuning uchun bolaligida faqat gunafsha rangli varrak yasar ekan. Saida Zununova esa feruza rangni juda yoqtirar, ilhom kelgan chog'larda feruza ko'zli uzugiga tikilganча, hayol surib qolarkan. "Feruza rangning nimasi yaxshi?" degan savolga shoiraning

¹ С.Зуннуова Танланган асарлар. Т., 1976, 1-жилд. 166-бет.

² Саид Аҳмад Биз шундай яшадик // Йўқотганларим ва топганларим. Т., "Шарқ", 1999. 189-бет.

javobi tubandagicha bo'lar ekan: "Bolaligimni esimga tushiradi. Somonli shuvoq qilingan tomimizda bahor kezlari ko'rpadek lolaqizg'aldoqlar ochilardi. Atayin tomga chiqib chalqancha yotardim-da, osmonga tikilardim. Osmon so'ngsiz, ko'm-ko'k. Xuddi feruzaga o'xshardi. Hayolimga eh-he, nimalar kelmasdi o'shanda. Uchib chiqib ketgim kelardi. Negadir, hozir osmonda o'shnaqa tiniq feruza rang yo'qqa o'xshaydi".¹ "Bahorni qarshilab" she'rining lirik qahramoni bu o'rinda shoiraning aynan o'zidir.

Said Ahmadning Hamzaobod xotiralarida shoira tabiatidagi feruza rang bilan bog'liq yangi qirralar ochib berilgan. Adibning ta'kidlashicha, "Yo'l boshida", "Qarz", "Yangi sekretar", "Kechikish", "Kuz yomg'iri", "Daftardagi dardlar" kabi o'nlab hikoyalar va bir qator lirik she'rlarning yaratilishida sayohat paytida olingan feruza ko'zli uzuk ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan.

Ijodkor shaxsining shakllanishida bolaligi qay tarzda kechgani muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalik xotiralari bir umr hamroh bo'lishi, ayrim asarlariga mavzu berishi mumkin. Abdulla Qahhorning shafqatsiz realizmiga achchiq o'tmishi, sarson-sargardonlikda kechgan bolaligi sababchi bo'lgan bo'lsa, Oybek ijodidagi romantikaga moyillik, tabiat go'zalligi va voqealarni nozik his eta olish nisbatan osuda kechgan bolalik yillari, bobosi, onasi hamda opasining ta'sirida paydo bo'lgan. Saida Zununovaning bolaligi baxtli kechgan. Ota-onasi, buvisi bilan o'tkazgan damlar, ayniqsa, otasining g'amxo'rliги unga go'zal xotiralar qoldirgan. Urush dahshati, keyinroq otasining vafoti o'n olti yoshli shirin hayollar, ulkan orzular qo'ynida yashayotgan qiz uchun og'ir zarba bo'ladi. Bu zarbalar unga dunyo o'zi o'ylagandan ko'ra shafqatsizroq ekanini anglatdi, qiyinchiliklarni yengib o'tishni, irodali bo'lishni o'rgatdi. Keyinroq yolg'iz ukasining vafoti, umr yo'ldoshining qatag'onga uchrashi, nohaq ayblashlar, kamsitishlar shoiraga dunyoning asl qiyofasini namoyon etdi. Hayotda juda ko'p qiyinchiliklarni boshdan kechirgan shoira uchun tinch, osuda o'tgan bolaligi bir umrga tatigulik go'zal xotiralar bo'lib qoldi. Tomda osmonning feruza rangini tomosha qilish yosh qalbga bir olam surur, zavq-shavq bag'ishlagan bo'lsa, oradan yillar o'tib, yana o'sha rangga intilish beg'ubor damlarga, olamni yana o'sha qalb bilan his etishga, bolalik ko'zi bilan ko'rishga intilishdir. Shuning uchun go'daklikda yoqtirgan feruza rang ijodkorni to'lqinlantiradi, ruhiga, hissiyotlariga ta'sir etib ilhom bag'ishlaydi.

Jiyda gulining isi ham shoiraga ilhom beruvchi vositalardan biridir. U ayni jiyda gullagan kezlarda hovlida allamahalgacha kitob o'qib o'tirar yoki ijod qilar ekan. Said Ahmadning yozishicha, uning o'nlab sherlari bahorda, tabiat jiyda gullarining isiga burkagan vaqlarda yozilgan. Shoira ijodiy merosida "Jiyda gullaridan" deb nomlangan kichik sher ham bor. U jiyda gulining anvoyi atridan sarmast bo'lgan lirik qahramoning ko'tarinki kayfiyati tasviri bilan

¹ Саид Аҳмад. Танланган асарлар. Т., "Шарк", 2000, 3-жилд. 188-бет.

boshlanadi. Lirik qahramonga estetik zavq bergan tabiat mo'jizasi dan she'r yakunida inson hayotiga taqqoslasa arzigulik falsafiy xulosa chiqarilgan.

G'afur G'ulom, O.Sharofiddinov, L.Qayumov, J.Jabborovlarning xotiralarida Saida Zunnuova ijodining o'ziga xosligi, o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi ahamiyati ta'kidlab o'tildi. Shuningdek, T.Sodiqova, Saida Zununova, O.Hojieva "Soz", M.Murodova "Darvoza" she'rlarida, To'lan Nizom "Oq gul" lirik qissasalarida shoiraning yorqin siymosini yaratishga harakat qilgan. Mazkur badiiy asarlardan ham shoira xuddi xotiralarda kuzatilganidek nahaqlik va adolatsizlikka beshafqat, lekin olijanob qalb egasi sifatida gavdalandiriladi.

II BOB

Birinchi fasl. Saida Zununova asarlarida kurashchan qahramon talqini

Har qanday shoir she'riyatida lirik qahramon tabiatini o'rganish o'sha ijodkor shaxsiyati haqida muayyan tasavvurga ega bo'lish, asarlariga xos uslubiy jihatlarni ilg'ashda yetakchi omil hisoblanadi. Qolaversa, shoir ijodini baholashda uning she'riyatidagi lirik qahramon nechog'lik yorqinligi, o'zida insoniy fazilatlarni, oliy tuyg'ularni qaydarajada mujassam etgani bosh mezonlardan sanaladi. Har bir shoir shariyatidagi lirik qahramonini uning butun ijodi davomida yaratgan asarlarini umumlashtirish orqali yaxlit tasavvur etish mumkin. Saida Zununova she'riyatidagi lirik qahramon o'z maqsadlari yo'lida kurashuvchan, hayot zarbalariga uchraganda umidsizlikka tushmaydi, ertangi kunga, kelajakka ishonch bilan qaraydi. U eng og'ir vaziyatlarda ham hayotdan go'zallik, nur axtarishga o'zida kuch topa oldi.

Inson taqdiri va hayot jumboqlari shoira shariyatining mazmun mohiyatini tashkil etadi. Shoira bu jumboqlarga javob topish uchun izlanadi, uni atrofdagi barcha narsalar birdak qiziqtiradi hech narsa sinchkov nazaridan chetda qolmaydi. Tabiat va jamiyatni bir butun olam sifatida tasavvur etadi, ularni bir-biri bilan bog'liq holda o'rganadi, o'xshash tomonlarini kuzatadi. Tabiatdagi har bir g'iyoh, jonzot yoki hodisadan insonga, uning hayotiga muqoyasa etsa arzigulik jihatlarni topadi.

Saida Zununova yashab ijod etgan davda bor haqiqatni, ko'ngildagi gaplarni ro'y-rost aytishni iloji yo'q edi. Shu bois shoira sherlarini ayrim o'rinlarida hayot haqiqatlarini nozik qochirmalar, ramzlar vositasida anglatishga urinishlar mavjud. "Qush" ozodlik g'oyasi ilgari surilgan majoziy manodagi sher. Qafasda dunyoga kelgan qushcha ozod etilsa-da, uchib ketolmaydi. Chunki u osmon havosidan nafas olmagan, tor qafasni dunyo deb biladi.

Bir xayrli ish ishtiyoqida

Achinish, mehr-la qafasni ochdim

Kechdim ko'nglim yozgan qo'shiqlaridan

Shundan oladigan bahradan kechdim.

Uvishgan qanotlar parvozga matal,

Balki tushida ham ko'rar osmonni.

Kishanmas, hatto ip keladi malol,

Bir marta ozodlik ko'rgan insonga

Uchishga yaralgan ojiz jonivor,

Qani yoz chiroyli qanotingni bir.

U bo'lsa beparvo menga jovdirar,

Go'yo shu qafasga mixlabdi taqdir,

O'zi bosh chiqarib, o'zi cho'qiydi.

Shoʻrlik ishonmasmi yo shuncha qoʻrqoq?
Soʻng pirillab ozgina joygacha uchdi,
Lekin ketolmadi qafasdan uzoq.
Uzoq ketolmadi, chunki shu qafas,
Uni yoʻrgaklagan, tugʻilgan shunda.
Osmon havosidan olmagan nafas ,
Totsaydi, simlarni parchalarmidi?

Oʻzbek adabiyotida qush timsoli anʼanaviy obrazlardan sanaladi. Zulfiyaning “Uzoqlarda sayraydi bir qush ” sheridagi qush “qor qahriga isyon koʻtarib” sayrashga, kuylashga intiluvchi bukilmas iroda ramzi boʻlsa, Halima Xudoyberdieva sheriyatida qushcha obrazi baxt va qabohat, goʻzallik va yozuzlik, yorugʻlik va zulmat kabi manolarni yuklaydilar. Saida Zunnovanning “Qush” sheridagi qush esa mutelikda tugʻilib oʻsgan va shunday yashashga oʻrgangan, oʻz erki uchun kurashmay taqdirda boriga koʻnikuvchi insonning yoki butun bir xalqning ramziy obrazidir. “Qush” sheri bilan Choʻlpon qalamiga mansub “Qushning hadigi” sherini qiyoslash qiziqarli xulosalarga asos boʻladi.

Choʻlpon sheridagi qafasga mahkum etilgan qush osmon havosidan simirib, erkinlikda ulgʻaygani tufayli tor va biqiq hayotga koʻnikolmaydi, ozodlikka talpinadi. Biroq u qanchalik urinmasin, qafasdan ozod boʻlolmaydi. Nihoyat, taqdirga tan beradi, uning koʻm-koʻk dalalarni oʻrmonlarni eslab-eslab yigʻlamoqdan, toʻlib-toshib sayramoqdan oʻzga chorasi qolmaydi. Adabiyotshunos N.Karimovning fikricha, “Choʻlpon-kechagi somon parcha-shu qush timsolida oʻz taqdirini tasvirlagan edi”. Shu oʻrinda bir savol tugʻiladi: Saida Zunnunova ham “Qush” sheridagi qush timsolida Choʻlpon singari oʻzini tasvirlamayaptimikan? Shoir tilga olgan qush balki Choʻlpon qalamga olgan qushning qafasda dunyoga kelgan va ulgʻaygan avlodidir? Shoir salkam qirq yil avval ham ozodlikka talpingan qush haqida sher bitilganidan xabardormidi ? Bizning fikrimizcha shoir otasi, oʻqimishli adabiyot muxlisi boʻlgan Ergashboy Zunnunovdan Choʻlpon va Hamza asarlari haqida maʼlumot olgan boʻlsa kerak. Shundan kelib chiqib, otasi yosh shoirani Hamza bilan bir qatorda Choʻlpon ijodi bilan ham yaqindan tanishtirgan, deb ayta olamiz. “Qushning hadigi” sheʼri shoirada katta taassurot qoldirgan, yillar davomida xotirasidan saqlanib, qaysidir sabablarga koʻra “Qush” sheʼrining yaratilishiga turtki boʻlgan boʻlishi ham mumkin. Shu bilan sheʼrda ochiq-oydin istiqloq gʻoyasi ilgari surilgan, degan fikrdan yiroqmiz. Lekin sheʼr yaratilgan 1963 yillarga kelib shaxs va ijodkor sifatida shakllanib ulgurgan shoir zamondoshlarining erksizlikdan boʻgʻilayotganligini anglab yetgan, hatto buni oʻz taqdirida ham sinovdan oʻtkazgan edi. Balki shu sababli u shaxs erkini kuylashga oʻzida ehtiyoj sezdi, ochiqdan-ochiq erkka tashnalik, erksevarlikdan azoblanish ruhini singirdi.

Shoiraning “Bir do‘st azasidan keldim ezilib”, “Tomchilar”, “Qog‘oz gul”, “Novdalar chayqalar”, “Maysa nish uribdi”, “Hayotdan nolisa birov suymaydi”, “Hayolimni buzma” kabi she‘rlarida boshqa ko‘pgina zamondosh shoirlar ijodida kuzatilmaydigan ruh bor. Bu she‘rlarning lirik qahramoni qanchalik mushfiq va mushtipar ayol bo‘lmasin, o‘rni kelganda yozuvchilikka, haqsizlik va adolatsizlikka shafqatsiz, shijoatli kurashchiga aylanishi mumkin ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Saida Zununovaning atiga o‘n qatordan iborat “Maysa nish uribdi” deb boshlanuvchi majoziy she‘rida ariq bo‘yicha nish urgan maysaning xuddi birinchi sevgi yangilig‘ beg‘uborligi, quyoshga talpingan qiyoslarida ham ilk sevgining soddaligi mavjudligi nozik poetik til bilan ifodalanadi. Maysa hali yozning jazirasi, kuzning to‘zonli shamollari ne ekanini bilmaydi. U hayotni ariq suvining shildirashi-yu ko‘klam oftobining huzurbaxsh iliqligi deb biladi:

Maysa nish uribdi ariq bo‘yida,
Birinchi sevgidek biram beg‘ubor.
Quyoshga talpingan qiyoslarida
Birinchi sevgining soddaligi bor.
Ko‘rmagan saraton oftobini yeb,
Kuzning to‘zonlarin mutlaqo bilmas.
Bulut ko‘z yoshidan taltayib, ishq deb,
Bahor yellariga yuz tutadi mast
Maysa nish uribdi ariq bo‘yida.
Birinchi sevgida biram beg‘ubor...¹

Bizning fikrimizcha, bu yerda maysani ta‘riflashdan maqsad unga nisbatan o‘quvchida muhabbat uyg‘otish emas. Maysa hali hayotning achchiq-chuchugini totib ko‘rmagan, hamma narsada faqat go‘zallik va yaxshilikni ko‘ruvchi g‘o‘r qalb egasining ramziy obrazi. Inson katta hayotga qadam qo‘yar ekan, unga olamdagi barcha narsa go‘zal yoki xunuk, atrofidagi insonlar esa birdek olijanob yoki jirkanch bo‘lib ko‘rinadi. Chunki u hayotda go‘zallik bilan xunuklik, olijanoblik bilan jirkanchlik yana qancha-qancha sifatlar uchrashidan, dunyo sinoat va murakkabliklar asosiga qurilganidan bexabar, dastlabki taassurotlarini mutloq haqiqat sifatida qabul qiladi. Shu bois shoir uni maysaga qiyoslab, birinchi sevgining soddaligini, beg‘uborligini nisbat bermoqda. Tanqidchining e‘tiroziga sabab bo‘lgan ikki misrasiz she‘r juda g‘arib, unda ifodalanayotgan fikr ham to‘mtoq bo‘lib qolardi. She‘r avvalida badiiy niyatning sir saqlanishi, so‘ng fikrda keskin burilish yasab, kitobxonni mushohada yuritishga chorlash shoir mahorati samarasidir. Tajribasiz yurak har qanday dil izhorini ishq deb qabul qilishi, o‘tkinchi havasni chin muhabbat bilan, sururidan mast bo‘lishi mumkin. Biroq she‘r bu bilan

¹ С.Зуннунова. Танланган асарлар. Т., 2001,82-бет.

tugallanmaydi. Punktatsion o'zgarishini aytmaganda, she'r oxirida birinchi ikki misra aynan takrorlanadi.

Maysa nish uribdi ariq bo'yida,

Birinchi sevgidek biram beg'ubor...

Bu o'rinda qo'yilgan ko'p nuqta fikrning tugallanmaganligini, yakuniy xulosa chiqarish kitobxon e'tiboriga havola etilganini bildiradi. Shu bilan birga, she'r ma'nosida ham serqatlamlilik vujudga kelganki, bu yerda gap faqat muhabbat haqida emas, balki umuman hayot ma'nosida ham borayotibdi. Qo'llanilgan badiiy usul kitobxonni maysa saraton oftobi jazirasiga kuzning yomg'iri to'zonlariga bardosh bera oladimi-yo'qmi, degan saavollariga javob izlashga, uning kelgusi taqdiri haqida o'ylab ko'rishga undaydi, she'rning ta'sir kuchini oshiradi. Fikr oqimiga keskin burilish yasash yoki so'nggi to'xtamga kelishni kitobxonga qoldirish she'rning uzoq vaqt yodda muhrlanib qolishiga sabab bo'ladi. Shoiraning "Yomg'ir savalaydi", "Archalar yonida bir juft oq qayin", "Qizim qo'shiq kuylaydi", "Yomg'ir shovillaydi", "Tanbur", "Mashinka" kabi she'rlari shunday sara asarlar jumlasidandir. Chunonchi, shoiraning "Yomg'ir shovillaydi" she'ridagi kuyidagi satrlarni olib ko'raylik:

Yomg'ir shovillaydi, tinch, issiq uyim

Sog'inchga to'lgan, vaslingga tashna.

Yomg'ir shovillaydi, chuvalab uyim...

Ha, yomg'ir daryomas, yo emas chashma.

Yomg'ir shovillaydi.

Chashmalar bo'yini hayol qilardim,

Seni ko'rmoq bo'lsam hayol qilardim,

Seni ko'rmoq bo'lsam xatto bir nafas,

Gullar xid sochmasa malol kelardi,

G'unchalar bag'rini kuydirgan havas

Biz deb bilardim.

Tog'larga chirmashib, nurga chirmashib,

Bulutlar qo'ynida yurardik suzib.

Yellarga tutashib, entikib, shoshib,

Taq, deb yulduzlarni berarding uzib...

Eh, orzu, orzular.¹

Lirik qahramon shu tariqa "U yillar chaqmoqdek bir yonib, so'ndi" deya "Mushtoqu zor qilib endi iziga" Zor bo'lgan yaqin insonni, to'g'rirog'i, ilk sevgi va sevgilisini qo'msaydi.

¹ Саида Зуннунова. Танланган асарлар. Т., 2001, 49-бет.

Yomg'ir shovillaganda uni kutishni aytadi. "Bir choynak issiq choy, dilkash bir suhbat" uchun xatto joninida tutishga tayyor. Chunki lirik qahramonning qalbidagi sog'inch va muhabbat unga tinchlik bermaydi. Shoira she'rga kutilmagan yakun yasaydi:

Sensiz hamma narsa bo'sh-bo'sh,tuyilar,

Yomg'ir shovillaydi, yomg'ir shovillar....

Shoira quyidagi ko'p nuqtalar hali fikrning tugamaganligini, kitobxon o'zi voqeaning davomini anglab olishini bildirib turibdi.

Shoira "Mashinka" she'rida gap faqat mashinka haqida emasligini, shoir qalbidagi iztiroblarni shunday ifodalaydi:

Jonsiz, hissiz, muzdek temir bo'lmasang

So'zlar haroratidan erib ketarding.

Bo'xtonlar yozganda, bilmam, netarding

Jonsiz, hissiz, muzdek temir bo'lmasang?

Shaqir-shuqur, tinmas bu ovoz tun-kun,

Osmonu zaminda so'zlar kuyuni.

Biri childirasa hissiz kuyunib

Biri taraladi oftobdek mayin.

Shaqir- shuqur tinmas bu ovoz tun-kun,

Gazeta, kitoblar sonsiz lashkari.

Birida insonning ummon oshiqlari,

Biri shoshar tabassum bo'lmoqlik uchun

Yaxshi ham temirsan muzdek va jonsiz...¹

Ushbu she'r ham kitobxonni o'yg'a toldiradi, uni fikr-mushohada qilishga, ham ezgulik, ham yovuzlik va yomonliklar haqida fikrlashga chorlaydi. Eng muhimi, shoira xulosa chiqarishni kitobxonning o'ziga qo'yib beradi.

Ijodkor davr kishisi, demakki, u o'zi mansub bo'lgan davr g'oyalari, hukmron mafkura ta'siridan butunlay chetda qolmaydi. Saida Zununova murakkab zamon farzandi bo'lgani uchun uning ijodida ham ziddiyatli jihatlar mavjud. Shoira o'z davrining ijodkori sifatida asarlarida ilg'or va xalqparvar siyosatni targ'ib qilishni, zamondoshlarning kayfiyatini, "yorug' kelajak tomon qadam qo'yayotgan sovet kishisining fidokorona mehnatini kuylashni burch deb bildi. "Qizingiz yozdi" to'plamiga kiritilgan 20 ta she'rning aksariyati ana shunday maqsad bilan yaratilgan. "Baxt kitobi", "Yangi yil kechasida", "Yo'lda", "Paxtakorlarga", "Rasmingni ko'rdim", "Ushlangan orzu", "Moskva" kabi she'rlarida xalqning "misoli ko'rilmagan

¹ Саида Зуннунова. Танланган асарлар. Т., 2001, 184-бет.

zafarlarga” erishayotganini, mehnat ahlining “farovon turmush”, “dohiylar” sha’niga maqtovlarni zavq-shavq bilan kuylaydi. Buni she’riyat olamiga kirib kelayotgan, hali hayot tajribasiga ega bo’lmagan ijodkorning izlanish yo’llaridagi urinishlari deb baholash mumkin.

Lekin ana shu to’plamga kirgan she’rlar orasida ham shoira dastlabki davrlardayoq iste’dodi o’z tengdoshlariga nisbatan ancha o’tkir ekanligini, bir qator she’rlarda iste’dod qirralari, hali ishlatilmagan yangi tashbeh va obrazlar mana men deb ko’zga tashlanib turganligini ko’rish mumkin.

Ikkinchi fasl. Lirik qahramon va shoira shaxsi munosabati

Shoira lirikasining, umuman ijodning bosh mavzusi-ayol va uning taqdiri haqida qayg’urish. Saida Zununovaning she’rlari qaysi mavzuda ekanidan qat’iy nazar voqea-hodisalar ayol qalbi orqali idrok etiladi, ayollarga xos hassoslik bilan mushohada yuritiladi. U ayol ruhiy olamini butun nozikligi va murakkabligi, his-hayajonlari, qalb tebranishlari, tovlanishlari bilan berishga urinadi, shunga loyiq so’zlar qo’llaydi, obrazlar tanlaydi. Shoira ayol baxtining eng avvalo muhabbatda, farzand tarbiyasi va oilada deb bilganini xotiralaridagi ma’lumotlar tasdiqlaydi. Bunday shaxsiy qarash ijodkorning hayotiy falsafasi darajasiga ko’tarilib, u yaratgan qahramonlar tabiatiga ham ko’chib o’tdi. Shoira yaratgan qahramonlar ham baxtini xuddi uning o’zidek tushinadilar va shunday baxt uchun hamma narsaga tayyor turadilar. Shunga asoslanib o’zbek adabiyotida hali hech bir shoira oilaviy baxt haqida Saida Zununovachalik tabiiy va hayotiy yoza olmadi, deya olamiz. Chunki bunday mavzudagi she’rlarning lirik qahramoni oilaviy baxtga muyassar bo’lgan ayol-shoira o’zi.

Kuzatishlarimiz asosida shoirlar ijodida muhabbat mavzusiga yondoshish bevosita ularning shaxsiy hayoti bilan bog’liq bo’ladi, degan xulosaga keldik. Nikolay Gumilevning fojeasi taqdiri Anna Ahmatova she’riyatida “baxtsiz muhabbat” motivining yetakchilik qilishiga va bu mavzu ko’proq lirik qahramon xotiralarini orqali yoritilish, voqea-hodisalar, kechinmalar tasavvurda jonlantirilishina sabab bo’lsa, Hamid Olimjon fojeasi Zulfiya she’riyatiga mangu hijron mavzusini olib kirdi. “Kechir qoldim g’afolatda”, “Deydilarki”, “Ne baloga etding muhtalo”, “Ko’rganmiding ko’zlarimda yosh”, “O’rik gullaganda” kabi qator yetuk she’rlar ayriliq azoblaridan yaralgan. Shoira o’zi ta’kidlaganidek “Baxtiyor sevgini kuylarda sozim, O’lim xanjariga tegdi-yu sindi” Saida Zununova lirikasida chin sevgi, yor muhabbatiga munosib bo’lish, u haqida qayg’urish, og’ir damlarda dardini bo’lishish, vafodorlik kabi motivlar ko’proq uchraydi. Shoirlar ijodidagi o’ziga xoslik ular she’riyatidagi fazilatiga aylanadi. Chunki qalamga olganlar o’z dardlari, o’z baxtlari, boshdan kechirganlari. Zulfiya va Saida Zununova ijodidagi hayoti va o’lim, insonning turfa tuyg’ulari, ruhiy dunyosi,

kechinmalari, onalik baxti va farzand mehri, tabiat haqidagi she'rlarning hamma-hammasida avtobiografik fakt "ruhiy tarix"- tayanch nuqta, uchish maydoni bo'lib xizmat qiladi. Sababi har ikki ijodkor o'zgaralar dardu hayajonini xuddi o'zlarinikidek qabul qiladi. Aytmoqchi bo'lgan gaplarini o'sha dardlarga, hayajonlarga esh qilib yuboradi. Buni dunyoni, voqelikni qabul etishda ayol ijodkorlarda aqliy mushohadaga nisbatan hissiyotning kuchliligi va ular tabiatiga xos bo'lgan tasirchanlik bilan izohlash to'g'riroq bo'ladi.

Saida Zununova so'z sanatining badiiy mavzusi bo'lgan muhabbat mavzusiga 50-yillarning o'rtalarida murojaat eta boshlagan.

Uning ijodida sevgi va sadoqat tarannumi ham o'ziga xos bo'lib, asosan ikki qahramon "men"-lirik qahramon va "sen" ya'ni yor obrazi ishtirok etadi. Shoir odatda bu obrazlar bilan yonma-yon keladigan "raqib" obrazi ishtirokidagi murakkab kolliziyalarni yaratishga ehtiyoj sezmaydi. Chunki uning lirik qahramoni o'z ishqining pokligiga, yorining ko'ngli ham o'zinikidek pokligiga shubha qilmaydi. Lirik qahramon ichki olami, ruhiy holati, kechinmalarining tabiat hodisalari, manzaralari bilan uyg'un holda berilishi shoir she'rlarining jozibasini, ta'sir kuchini yanada oshiradi.

Ayolning baxti muhabbat bilangina mukammal bo'la olmaydi. U o'zini baxtli sanashi uchun Alloh uni farzand atalmish bebaho ne'mat bilan ham siylashi kerak. Onalik baxti haqida hatto sevish yoki sevilish u qadar qimmatga ega bo'lmasligi mumkin. Shoir ayolning jamiyatdagi faolligini o'z kasbini sevishi va sadoqatini yoqlagan holda "Bezovta hayolga asirman ba'zan, qolgisi kelmasa ishdan kelinchak. Bu yaxshi xislatu va lekin yomon Bir chetda bosib yotsa belanchak", deya ayol uchun farzand mehrining nechog'li zarurligini ta'kidlaydi.

Lirik qahramon ilgari dunyoni faqat ayol ko'zi bilan ko'rgan, idrok etgan bo'lsa, farzand ko'rgach, ona qalbi orqali his eta boshlaydi. Uning endi tabiat va jamiyatdaga barcha narsa farzandi taqdiriga aloqador bo'lib tuyuladi, ularning pokligi uchun o'zini ma'sul sezadi. Ijodkorga onalik muhabbati cheksiz ilhom beradi, she'rlari yangi-yangi jilo, ming xil ohang, joziba baxsh etadi:

Meni katta shoir qildi qizginamning kulgusi,

Muhabbati she'rlarimni birdan qildi istilo.

Uning bilan jozibada jilva qildi kelgusi

Har jilvada ming xil ohang, ming xil bo'yoq, ming jilo¹

Shoir "Qizginam" she'rida farzandiga bo'lgan mehr-muhabbatni ifodalaydi, qiziga o'zining eng ezgu talaklarini tilaydi. Har bir ona farzandini sevib ardoqlarkan, uning kamolini

¹ Зуннунова С. Танланган асарлар. Т., 1976. I-

ko‘rishni, unga hatto yellar ham ozor bermasligini istaydi. Doim farzandi atrofida parvona bo‘ladi. Jajjiginasining har bir hatti-harakatidan dildan quvonadi:

**Qizginam, ishlaring, tashvishlaring ko‘p,
Mening baxtim bo‘lgan janjal, so‘roqlar,
Mening baxtim bo‘lgan erkaliklaring,
Mening baxtim bo‘lgan xushbo‘y dudoqlar.**

**Gard yuqmagan uyni nima qilardim,
Dam-badam yig‘masam o‘yinchoqlaring.
Xotirjam uyquni nima qilardim,
Yopmasam, ustringni ochgan chog‘laring.**

**Ba‘zan polga tushgan jajji izlaringdan
Baxtinga boqqanday qilmay huzur.
Oppog‘im, o‘rgilay mehnatlaringdan,
Oppog‘im, hamisha sog‘-salomat yur²**

Shoiara bisotida bunday farzandiga atalgan, ayol qalbi navolarini ifodalagan she‘rlar juda ko‘p. Bu jihatdan shoiraning qiziga atalgan allasi ayniqsa diqqatga sazovordir. Allada onaning farzandiga bo‘lgan bor mehr-muhabbati, eng sara so‘zlar bilan erkalashi va farzandiga atalgan eng ezgu va samimiy tilaklari ifodalangan:

**Qunduzim desam ham oz,
Yulduzim desam ham oz,
Dunyoda nima go‘zal-
Bo‘lsa, undan o‘zing soz,
Orom ol, qo‘zim, alla.**

**Asalmisan, qandmisan
G‘azal, muhabbatmisan?
Muncha shirinsan o‘zing,
Jonimga payvandmisan,
Uxla, yulduzim, alla.**

² Саида Зуннунова Танланган асарлар Т., 2001, 64-бет.

**Oyni olib beraymi,
Gullar terib kelaymi,
Atrofigda o‘rgilib
Shamol bo‘lib yelaymi,
Uxla, gul yuzim alla.**

**Oyning shu’lasi suvda,
Hamma narsa uyquda.
Mehrim tovlanib ketib,
Kuylagim kelar juda.
Uxla qunduzim, alla.¹**

Ha, ona uchun dunyoda farzandidan ham azizroq inson yo‘q. Ona farzandi uchun har narsaga tayyor. Uning har bir buyrug‘i onalar uchun qonun. Farzandi nima qilmasin, onaga bular noto‘g‘ri bo‘lib tuyulmaydi.

Aksincha, farzandining bilib-bilmay qilgan hatti-harakati onalarga bir olam shodlik baxsh etadi. Boisi farzandining beg‘uborligi, pokligi onaga kuch-quvvat bag‘ishlaydi. Saida Zununova “Yana qizimga” she’rida quyidagilarni yozadi:

**Bolangiz juda ham tantiq, deb ba’zan,
Tanish-bilishlarga qilardim ta’na.
Bu baxt mashaqqati oldida endi
O‘zim boshim qotib turibman, mana.
Hali tili chiqmay, buyruqlarini
Shuncha o‘tkazadi bu erka qizim.
Bilmay ham qolamiz ba’zan qo‘liga
O‘tib qolganini oila izmin.
Mana, ko‘tar deydi, ko‘zida yoshi yo‘q,
Yig‘lab talpinadi ko‘zimga boqib,
Ko‘ksimga bosaman, qo‘yib ishimni,
Yolg‘on yig‘iga ham bag‘rim tutaqib.
Yolg‘ondan bo‘lsa ham yo‘q, yo‘q, yig‘lama,
Bir tomchi yosh ko‘rmay ko‘zingda, qizim.
Umringga yuz bahor zamondosh bo‘lsin,**

¹ Саида Зуннунова. Танланган асарлар. Т., 2001, 29-бет.

Kelaqol, ko'taray baxtim, azizim.

Lekin farzandini shunchalar ardoqlagan, suygan ona uning erka-tantiq bo'lishini istamaydi. Shuning uchun ham qiziga nasihat qiladi. Bu nasihatda onaning qizining taqdiri haqida, uning kelajagi haqida naqadar qayg'urishi, qiziga bor umid va ishonchini tikkanligi, qizi faqat onaning farzandi bo'lmay, balki el-yurt farzandi bo'lishi ham kerakligi, el koriga yarashi ham mujassamlashgan:

**Mayli, erka bo'lu tantiq bo'lmagin,
Yaxshi-erka bo'lur doim eliga.
Yomon-erka bo'lmas, ensa qotirar,
Yaxshi yog'dek yoqar odam diliga.
Bilasanmi, qizim, bu koinotda
Onaning orzusi quchmagan baxt yo'q.
Onaning hayoli yetmagan bo'shliq,
Onaning hayoli to'xtagan vaqt yo'q.
Ana shu tinmagan orzu-o'ylarim,
Mehnat, muhabbatim, mehrim haqiga-
Bir g'ubor ko'nmasin, desang, oppog'im,
Erka bo'l hamisha yurting, xalqingga.¹**

Saida Zununova nasriy asarlarining qahramonlari turli xarakterdagi xotin-qizlar bo'lsa, she'riyatidagi lirik qahramon barcha illatlardan hali barkamol ayol sifatida gavdalanadi. Bu holat shoiraning "Sen ham shundaymiding", "Uchrashuv onini kutib", "Qadrlasang insonligingni", "Ne istaysan deysan", "Sira chidolmayman", "Ko'zlariga singib ketar vujudim", "Seni menga yomon desa kim", "Yor keladi", "Uyqum qochib ketdi" kabi she'rlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunonchi, shoira "Uyqum qochib ketdi" she'rida baxtni shunday tasvirlaydi:

**Sen tufayli men ishq,
Sen tufayli men baxt.
Yo'llarim ham tugab qolurdi sensiz.
Sen tufayli oqshom qo'yni to'la nur,
Sensiz orzularim, aqlim ham karaxt,
O'ylarim qanoti tolurdi sensiz,
Dilda borligingning o'zi bir huzur.**

¹ Саида Зуннунова. Танланган асарлар. Т., 2001й., 214-бет.

“Seni menga yomon desa kim” she’rining lirik qahramoni o‘z sevgan kishisini dilda ardoqlaydi, hurmat qiladi. Bir umr u bilan birga yashashni, baxt zavqini totishni istaydi. Shu bilan birga o‘z juftini balo-qazolardan, yomon ko‘zlardan asrashga tayyor ayol obrazi. Shuning uchun ham lirik qahramon o‘z sevgan kishisi haqida yomon fikr bildirishlarini istamaydi. Sevgan insonning nomus-ori, sha’ni uchun kurashishini o‘z burchi deb biladi:

**Seni menga yomon desa kim,
Kechirmayman bir umr uni!
Meni senga yomon desa kim,
Qaro bo‘lsin ro‘zg‘ori, kuni.
Dilim andakkina g‘ashlanib,
Chimirilib olganim uchun,
Diling angdakkina g‘ashlanib.
Bir dam qovoq solganing uchun
Kechirmayman ularni hech vaqt!
Ular sevgi kushandalari,
Ular egov umrga, baxtga,
Kechirmayman o‘shandaylarni,
Kechirmayman
Kechirmayman hech.¹**

III BOB

Birinchi fasl. Shoir dostonlarida ijodkor shaxsiyati ifodasi

Saida Zununovaning “Sodiq va Anor” (1947), “Xayrixon” (2949), dostonlari o‘z davri uchun dolzarb mavzuda yozilgan. Shoiraning yirik janrlarining ilk tajribalari bo‘lgan ushbu dostonlar badiiy jihatdan yetuk emasligi bois keyinchalik “Tanlangan asarlar” to‘plamiga kiritilmagan.

¹ Ўша китоб, 156-бет.

Shoiraning “Ruh bilan suhbat” (1966), “Qo‘shnilarim”, (1968), “Alla” (1972), “Lirik nutq” (1974) dostonlarida epik tasvirdan ko‘ra lirik qahramonning ruhiy-psixologik holatini yoritish ustunlik qiladi. Dostonlarning taqdiri, davrining dolzarb muammolari, ayol va uning baxti, tinchlikni asrash, muhabbat mavzusi yetakchi o‘rinda turadi. Shoira dostonlarida ham she‘rlaridagi kabi muallif shaxsining o‘rni, ayol obrazini yaratishdagi o‘ziga xoslik yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shoiraning “Ruh bilan suhbat” dostoni mavzu jihatidan Mirtemirning “Surat”, Erkin Vohidovning “Nido” dostonlariga o‘xshasa-da, shoira tasvirida, obraz yaratish va qahramonlarning ichki kechinmalarini berishda o‘ziga xos yo‘ldan boradi. Ona taqdirida o‘z volidasining, qolaversa, xuddi shunday qismat boshiga tushgan o‘zi tanigan va yaqindan bilgan ayollarni ko‘radi.

“Ruh bilan suhbat” dostoni to‘y oqshomidan keyingi holatning quyidagicha tasviri bilan boshlanadi:

**Odamlar tarqalgan allaqachonlar,
To‘yxonaga ham hukm o‘tkazgandi tun.
O‘choqda kul bosgan cho‘g‘lar millatlar,
Samovardan hamon o‘rmalar tutun.
Mashshoqlar o‘tirgan so‘ri ham bo‘m-bo‘sh,
Tuproqda eng so‘nggi raqqosa izi.
Birov karavotda uxlaydi pish-pish,
Birov muzdek suvda chayadi yuzin.
Faqat uyqu kelmas ona ko‘ziga.
Shodligu xotira qalbini qamrab,
Behush ergashtirib izidan uni.
O‘tkazmay, yotkizmay yurardi sudrab.
Qarashmoqchi bo‘lar goh singlisiga,
Goh turib qoladi hayolchan, sokin
G‘ohi kelgan kabi hushi-esiga,
Entikib atrofiga qaraydi sekin.¹**

Ushbu satrlarni o‘qigan kitobxonda “O‘lini o‘ylagan bo‘lsa. Kelin olishday ezgu niyati ushalgan bo‘lsa. Onaga yana nima kerak? Nega uning qalbi bezovta?” degan savollar tug‘iladi. Shoira onaning o‘g‘li va kelinini “Qo‘shaloq kaptardek ahil va inoq, shu uyga fayz berib

¹ Саида Зуннунова. Танланган асарлар. Т. , 2001, 216-бет.

² Ўша жойда, 217-бет.

yashasalar bas” deya tilak bildirishi bilan birga ayolning qalbidagi armonlar haqida “Shu orzu, ovunchda umri o‘tdi toq” deya, ayolning taqdiriga ishora qiladi.

So‘ngra stolda turgan guldastani olib ayol uyga kirib, to‘rida turgan suratning yoniga kelib gulni qo‘yadi va hayolga cho‘madi:

**Sarupo kiymading qaynota bo‘lib,
Hech yo‘qsa, gullardan bo‘lgan bahramand.
Odam keldi bugun hovlingga to‘lib,
Farzanding yoniga qo‘shildi farzand. . .
Shodlik, o‘kinchdanmi ko‘z yoshlar oqdi,
Ona qalbi so‘zsiz chekardi fig‘on.
Xira ko‘zlar bilan yana suratga boqdi,
U hamon o‘shanday, sukutda hamon.**

Saida Zununovaning “Ruh bilan suhbat” dostoni lirik doston bo‘lib, alohida bir oilaning urush tufayli chekkan musibatlari haqida. Lekin muallif ana shu birgina oila taqdiri misolida butun xalq, balki xalqlar boshiga tushgan kulfat, alam va iztiroblarni jonlantiradi. Urush millionlab kishilar umriga zomin bo‘lgani, insonlar qalbiga tuganmas qayg‘u solgani, mangu armon urug‘ini ekkani qalamga olinadi. Axir ana shu sovuq urush tufayli ne-ne alp yigitlarning umri hazon bo‘ldi. Minglab xonadonlar yaqinlaridan ayrilib. Yuzlab bolalar otasiz qoldi. Kimdir akasidan, yana boshqa birov esa sevikli yoridan ayrildi. Jangdan qaytgan yigitlarning ko‘pchiligi esa mayib-majruh, nogiron bo‘lib qaytdilar.

“Ruh bilan suhbat” dostonida ayol urushdan qaytmagan umr yo‘ldoshining ruhi bilan unsiz suhbat quradi. Ana shu suhbat asnosida qahramonlarning o‘tmishidan, tahlikali va og‘ir davr dramalaridan, insonlar qalbida qolgan bitmas jarohatlardan voqif bo‘lamiz. Adabiyot tarixida asar qahramonlarini ruh yoki arvohlar bilan hayolan muloqotga kiritish, shu usulda muallif niyatini to‘laroq ochishga urinish usuli ko‘p uchraydi. Chunonchi Shekspirning mashhur “Gamlet” tragediyasida qahramon va otasi, Fitratning “Abulfazxon” fojeasida Abulfazxon va Hayol, Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” fojeasida Ulug‘bek va Amir Temur ruhi o‘rtasidagi suhbat asar g‘oyasini yoritishda muhim o‘rin egallaydi. Bunday asarlarda, bir jihatdan, qahramon xuddi o‘z vijdoni oldida hisobot berganday dardu hasratlarini o‘sha ruh timsoli bilan o‘rtoqlashadi, ikkinchidan, ruhning qahramonga bergan daldasi uning kelgusi hayotiga muayyan ta‘sirini o‘tkazadi. Saida Zununova ham “Ruh bilan suhbat” dostonida shunday usulni muvaffaqiyatli qo‘llay olgan. Buni quyidagi satlarda yaqqol ko‘rishimiz mumkin:

Itni qopmaydi deb bo‘lmas, azizim,

**Tushlaringga kirib, sergak bo‘l, deyman.
Odamlar! Dog‘ surtmang aql yuziga,
Dunyoning umriga tirak bo‘linglar.
Qachon urush oti o‘chsa olamdan
Ona tuproq ichra uzatib oyoq,
Xotirjam bo‘larkan avlod, bolamdan,
Xayol-xotirangdan ketmay yiroq.¹**

Shoiraning “Qo‘shnilarim” va “Lirik nutq” dostonlari sof avtobiografik xarakterga ega. “Qo‘shnilarim” dostoni muallifning o‘z mahalladoshlari, qo‘shnilariga samimiy muhabbati ramzi va ko‘p yillik izlanish, tayyorgarlikning samarasi o‘laroq dunyoga kelgan. Mazkur asarni muvzu va syujet jihatidan Sulton Akbariyning “Mening mahallam” dostoniga qiyoslash mumkin. Har ikki doston lirik qahramonning mahallasini kezish asnosida o‘tmish xotiralaridan iborat. “Mening mahallam” dostonida ijtimoiylik, davr siyosatiga hamohanglik ruhi ustivor. Uning lirik qahramoniga o‘tmish “Xippa bo‘lgan jahonnam”, qorong‘u va chirkin bo‘lib tuyuladi. Muallif hatto ikki qo‘shni suhbatidan ham eski va yangi davrni qarama-qarshi qo‘yish, o‘tmishni qoralash, inkor etish maqsadida foydalanadi. Bu kitobxonda Saqichmondek xaroba joyda gashtsiz o‘tgan qahramonning mahallasiga bo‘lgan muhabbatiga ishonchsizlik uyg‘otdi. Dostonda ko‘chalar, hovli va uylar, davrning dolzarb masalalari haqida uzundan-uzoq gaplar aytiladi, lekin mahalladoshlar, qo‘ni-qo‘shnilarning mehr-oqibati, dardu dunyosi, ularni bir-biriga bog‘lab turuvchi rishtalar nimalardan iborat ekani yoritilmaydi.

Saida Zununovaning “Qo‘shnilarim” dostonida esa lirik qahramon hotiralari urush ofatini mustasno etganda go‘zal va diltortar, samimiyat bilan o‘qiladi. Bunga quyidagi satrlarni misol qilib keltirish mumkin:

**Mahallamdan asta boraman o‘tib
Bolalik yillarim kechgan ko‘chadan.
Tug‘ilgan shahrimdan qolganman ketib,
Sog‘inib kelaman ancha-anchada.
Lekin menga tanish har go‘sha, har uy,
Har bitta darvoza, har bitta daraxt.
Olis-olislarga tortqilaydi o‘y,
Qalbim hayollarning ko‘ksida karaxt.
Bu yerda hech narsa o‘zgarmagandek,
Devor nahrasiga bosh qo‘ygan tut ham.
Dovuchcha paytidan siylagan qantak**

¹ Саида Зуннунова Танланган асарлар. Т., 2001 й., 223-бет.

**Hali ham mahalla ahliga hamdak.
Chang qo'ngan yaproqlar sarg'aygan bir oz,
Qari tanasida bormikan izim.
Ana, chak-chak tomgan suvida navro'z
Sochimni yuvgandim qadrdon uzum.
Hammasi o'shanday, faqat qo'shterak,
Bahaybat qo'shterak ko'rinmas bugun.
Orziqib tushardi boqqanda yurak,
Bola hayolimga tashlardi tugun.
Tubila bo'lardi hovuzi supa,
Suvida suzardi baqayu hazon.
So'lim saharlarda shu yerdan so'fi
Jimjitlikni buzib aytardi azon¹**

Shoira shu tariqa mahallasining manzarasini chizadi. Qo'shnilari haqida iliq gaplarni bitadi:

**Bunda men tanigan birinchi odam,
Birinchi ko'rganim qadrdon qo'shnim,
Shu joyda ilk marta mehribon onam
Meni allalagan mehrdan jo'shib.
Osmon tiniqligin sezganman shunda,
Yer uzra birinchi qo'yganman qadam.²**

Ha, mahallasi va qo'shnilari lirik qahramon uchun aziz va mukarram. Boisi "Bahor go'zalligi, quyosh jilosi Shu joyda singigan ko'zu dilimga" deb yozadi shoira. "Shu joyda hayotning ilk alifbosi", behi gulidagi mayin chiroydan hayratlangani, yulduzlarni sanab, oyga termulgani, nomini ilk marta chaqirib dugonasi kelgani.... Hamma-hammasi shu yerdan-mahalladan boshlangan. Shuning uchun ham shoira:

**Birinchi olamim aziz mahallam,
Ahil qarindoshdan ahilroq, inoq.
Seni esga olsam yayraydi tanim,
Ozgina olislik tuyular firoq,-**

¹ Саида Зуннунова. Танланган асарлар Т., 2001, 228-бет.

² Ўша китоб, 229-бет.

Deb yozadi. Shoir ko'chasi mahallasining kelajagini ko'rishni, kelgusida bu joylarni yanada go'zal va obod ko'rishni istaydi:

**Ammo ne qilayki, shoirlik hissi-
Ezgulikka to'ymas yuragim yashar.
Ko'chamdan ketganlar yoniq nafasi
Yuziga urilsa deymen hamisha.
Bugunga keldin bo'lib tushmagan qizlar,
Bunda tug'ilmagan go'daklar haqqi,
To'xtab qolgan to'ylar, sarg'aygan yuzlar,
Ro'yobga chiqaman tilaklar haqqi,
Bir haykal ko'rmoqqa reja tuzsangiz,
O'ndan so'nga ko'chamni, mayli buzsangiz.
Toki yetmish yillik qadrdon qo'shni
Uchrashib tursalar bunda goh-goh.
Avval-ku bo'lishib yerdilar oshni,
Endi g'animatdir bir diydor nigoh.
Bunda lola, gullar ochilib tursa
Navqiron yoshdagi umrdek yashnoq.
O'lganlarning ruhi shodmon yursa,
Mash'al tutgan ziyrak yo'lchiga o'xshab.
Aziz qo'shnilarim, qadrdon ko'cham,
Bordi-yu, orzuim ocholmasa gul,
Ranjitmasin sizni, ranjimang hech ham
Tilagim bo'lmasa raisga maqbul.
Mehnatu mehrimdan men berib sayqal
She'rim bilan o'rnatdim haykal.¹**

Ha Saida Zununova o'zining "Qo'shnilarim" dostoni bilan mahallasiga, hamqishloqlari sha'niga haykal o'rnatadi, ularga o'zining bisotidagi eng noyob marjonalar tizmasidan doston bitdi. Shoir dostonida ijtimoiylikdan ko'ra ko'proq qahramonning ruhiyat manzaralari, qalb kechinmalari his-hayajonlarini yoritishga e'tibor qaratgan, asarda bir-biriga keskin zid bo'lgan oq va qora bo'yoqlar deyarli uchramaydi. Lirik qahramon mahallasini, qo'shnilarini insoniy fazilatlarini, "o'zbekchilik" asari uchun sevadi. Saida Zununovaning "Qarz" hikoyasi bilan "Qo'shnilarim" dostoni mavzu jihatidan o'xshash bo'lsa-da, ularning syujeti o'rtasida yaqinlik

¹ Саида Зуннунова. Танланган асарлар. Т., 2001 237-бет.

ko'zga tashlanmaydi. Biroq har ikki asarda ham qo'ni-qo'shnilar, mahalla ahlining samimiy munosabatlari ta'sirchan tarzda beriladi.

Shoiraning "Alla" dostoni onasi Saboxonga bag'ishlanadi. Dunyoda ona uchun farzand kamolini ko'rishdan ortiq baxt yo'q. Ammo beshigi ustida tunlari bedor o'tirib chiqqan, butun umidini bog'lagan farzandi bevaqt xazon bo'lsa-chi? Unda onaning ohi, faryodi ko'klarni tutadi, nolasidan toshlar eridi. Shoiraga yolg'iz ukasining, keyinroq singlisining vafoti onasini qanchalar abgor qilgani, bu dardga malham yo'qligi qattiq ta'sir qiladi, ruhan eziladi. Dardu alamlarni, dolidasiga bo'lgan cheksiz ehtiromini o'z asari orqali ifodalashga urindi.

"Alla" dostonida onaning obrazi mehr-muhabbat bilan chizib beriladi. Agar onalar alla aytmasa shoira nazdida:

**Yo'qsa tong shunchalar bo'lmasdi tiniq,
Havo ham bo'lmasdi buncha muattar.
Tongni olqishlashib qushlar sayrasa,
Kurtaklar jonlanib uqalasa ko'z,
Intilib, qiyog'in cho'zarkan maysa
Oftob qulog'iga aytmoq bo'lib so'z.
Tengsiz bu san'atni qo'zg'atgan ovoz,
Mayinu va mudroq ona allasi.
Subh-sabo hamisha uning bilan soz,
Uning bilan g'azal sahar pallasi.
U alla aytmasa tonglar otmaydi.
U alla aytmasa quyosh botmaydi.
U alla aytmasa dillarning g'ashin
Na suvlar yuvmaydi va yo'qotmaydi.
Uningsiz yashamoq bo'ladi dahshat,
Balki maymunligicha qolardi odam.
Va yoki bulardi hissiz bir vahshiy,
Go'zallik, teranlik bo'lmas edi ham.
Alla tinglamasa odam bolasi
Qaerdan oradi muhabbat kuchin.
Tilaklar, orzular bo'ladi hosil,
Onajonlar alla aytgani uchun!¹**

¹ Саида Зуннунова Танланган асарлар, Т., 2001 239-бет.

Ona allasining bu qadar teranlik bilan anglash uchun shoira qalbini tinglamoq, uning o'tkir nigohi bilan dunyoga nazar solmoq zurur.

Shoira tasvirlagan ona obrazi kamtar va kamsuqim. Hech kim undan tarjimai holini ham so'ramagan. "O'zi ham yozmagan nutqu ariza". Mehnat daftarchasini ham tutmagan. Qo'llari mehnatdan qadoq bo'lsa ham, biron marta bo'lsa-da minnat qilmagan, "Monyukr nimaligin bilmas tirnog'i" "Ammo uning tikkan iroqilarin Bolalar kiyardi qo'yishib bino" "Dengiz shovqinini qilmas tasavvur". Chunki "Na o'zga elatga sayru sayohat, Shu osmon ostida o'tkazdi umr". Zero:

**Holdan toysa hamki yurdi salomat,
Husnini ulashdi farzandlariga,
Xatto sochlarining tim qora rangin.
Jonin malham qilib har dardlariga,
Mehr-la yuvoldi ko'ngillar zangin.
Oz emasdi ular, besh qiz, uch o'g'il,
Qanday yurishardi uyni to'ldirib.
Biri dillarini qilganda xijil,
Xushnud etar edi biri kuldirib.¹**

Onaning zahmatlarini his etgan shoira quyidagi satrlarda o'zining onasiga bo'lgan cheksiz mehrini ifodalaydi:

**Yo'q, ona, onajon ey jafokashim,
Sakkizta farzandni ulg'aytirgan mard.
Qilmadim demangiz elning ishini,
Qo'nmasin armondan dilingizga gard.
Elning tilagiga sakkizda qanot,
Qaddiga sakkizda tirgovuch bergan,
Mushkuliga yana shunchalik najot,
Engmog'iga yana shuncha kuch bergan
Sizmasmi, onajon,ey muhtaramim,
Mehringiz o'tida quyosh isinsin!
Sizni kuylamasa agar qalamim,
Mayli, unutilsin, mayliga, sinsin.
Loqayd bo'lolmaysiz dunyo g'amiga,
Onalik qalbingiz barchasin tuyar.
Urish o'g'lingizni tortgan domiga,**

¹ Саида Зуннунова Танларган асарлар. Т., "Шарқ" НМК бош тахририяти, 2001, 241-бет.

**Mana, haligacha dilingiz kuyar.
Onalar kuzatmasa o'g'illarini
Oyga yetarmidi odam oyog'i.
Onalar tiyolmasa yig'ilari
Baxtga yo'l bermasdi firoqning dog'i
Tangri ham, jannat ham, ishq ham o'zingiz,
Qodirlik, borliq ham, davlat ham quvonch.
Siz omon bo'lingu bosgan izingiz
Ko'zlarimga surtib men ham yuray tinch.**

Saida Zununova ijodiy merosida shu nomli dostonidan tashqari "Alla" nomli yana ikkita she'r bor. Ularning biri farzandga aytilgan alla bo'lib, onaning tuyg'ulari g'oyat go'zal va ta'sirchan berilgan bo'lsa, ikkinchi yosh qizaloq tilidan qo'g'irchog'iga kuylagan alla qo'shig'idir.

Allaning sehri shoirani bir umr maftun etib keladi. Buni shoiraning biz tahlilga tortgan "Alla" dostonida ham ko'rish mumkin. Doston boshida quyidagi alla beriladi:

**Mehribonim ketdi-yu, alla,
Mehri ko'zimdan ketmadi, alla,
Mehribonim yo'q uchun, alla,
Hech kim meni yod yetmadi, alla.
Men ketarman bosh olib, alla,
Qaro ko'zimga yosh olib alla...¹**

Ikkinchi alla:

**Chug'ur- chug'ur turna o'tdi to'dasida, allayo,
Nevaramning ayajoni kiyinadi, allayo,
Shu zamonning eng oxirgi modasida, allayo,
Rayhonlarning shohidandir elpigichi, allayo,
Gul ichidan teril olgan gulbarchinim, allayo,
Bo'ylaringga ming tasadduq bo'lsin onang, allayo,
Shakar ko'zim, shirin so'zim, oybarchinim, allayo.**

Bulardan shuni ham bilishimiz mumkinki, Saida Zununova ham onasi, ham otasi xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganib ulg'aygan. Bu haqida shoiraning o'zi quyidagilarni yozadi:

"Onam Saboxon juda hushro'y ayol edi. Chiroyli ovozi bor edi. Men uning singillarimga aytgan allasini, kashta tikib o'tirib aytgan xalq termalarini go'dak paytimdayoq behayajon eshita

¹, Саида Зуннунова Танланган асарлар. Т., 2001 й. 243-бет.

olmas edim. Onamning hayoti og'ir bo'ldi. Juda ko'p yo'qotish, qiyinchilik ko'rdi. Ayniqsa, yoshgina bir singlimning vafotidan keyin onamning sog'ligi meni juda qattiq tashvishga solardi, qo'rqardim, ko'nglini ko'tarishga harakat qilardim. Uning singlim sha'niga aytib yig'lagan baytlari qulog'imga kirib o'rnatilib qolar, quyun singari yugirib yurardimu, berkina olmasdim. O'sha kunlardagi iztirob va muhabbatning mahsuli bo'lib "Alla" dostonim yozildi. Onam "Alla"ni o'qishga zo'rg'a ulgurdi".¹

Bulardan ko'rinib turibdiki, shoira o'z ijodida xalq og'zaki ijodi namunalaridan mohirona foydalangan va ularni asarlarining mazmun mohiyatiga singdirib yuborgan. Bular esa o'z navbatida shoira asarlarining ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Ikkinchi fasl. Qatag'on qilingan qissa-bugungi kunning asari

Saida Zununova nozikta'b shoira va talantli adiba edi. U adabiyotimizda sezilarli iz qoldirgan, she'r muxlislarining mehrini qozongan ajoyib ijodkor sifatida xotiramizda saqlanib qoldi. Adiba o'zining "Qo'llar", "Olov qiz", "Uzilgan ip", "Mehr", "Qiz poshsha",

¹ Саида Зуннунова Танланган асарлар, 1-жилд Т., 1976. 4-бет.

“Bo‘ylariningdan o‘rgilay”, “Go‘dak hidi”, “Qaynona”, “Ona bag‘ri”, “Buvi”, “Onai zor”, “Oydan tushgan qiz”, “Shu uyning bekasi” kabi o‘nlab hikoyalarida onalik baxtini, ayollik burchini, ishqqa sadoqati, ayollarning jamiyatimizdagi o‘rnini, orzu-umidlarini lirik lavhalarda tarannum qildi. Shu bilan birga “So‘qmoq”, “Olov” kabi bir nechta qissalarni yaratdi.

Lirik qahramon muammosi garchi individual ijod sohibining zahmati natijasi sifatida qaralsa-da, unda nafaqat yolg‘iz shaxsning, balki unga yaqin bo‘lgan kishilar ruhi, o‘sha ijodkor yashagan davrga xos xususiyatlar ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Ijod namunalarida lirik “Men”gina emas, u yashagan davrning “Biz”i yoki “ular”i, boringki, davrning asosiy voqealaridan tortib, katta-kichik muammolarigacha aks etishi mumkin. Shu jihatdan Saida Zununova ijodiga ramz solganda, davr dramasi aksini uning biografiyasida ham, badiiy asarlari, xotira va maqollarida ham ko‘ramiz. Demak, bu o‘rinda shoiraning she‘rlarigagina emas, ularga ohangdosh va mavzudosh bo‘lgan ayrim nasriy asarlariga ham murojaat etish ehtiyoji tug‘iladi. Davr dramasi she‘rlardan ko‘ra liro-epik yo‘nalishdagi asarlarda batafsilroq aks etishi mumkinligini nazarda tutib, ishda shoiraning dostonlari qatorida “So‘qmoqlar” qissasini ham tahlilga tortishni lozim deb bildik.

Turli vaznlarda yozilgan o‘n yetti bobdan iborat “Lirik nutq” dostoni mustaqil va yaxlit syujet chizig‘iga ega emas. Shoir bu asarida ellik yosh ostonasidan turib ortda qolgan umriga, ijodiga nazar tashlaydi, sarhisob etadi. Dostonning dastlabki to‘qqiz bobi lirik qahramon o‘tmishi, yaxshi yomon kunlari, hayotda erishgan yoki armonga aylangan orzulari, ustozlari xotirasi, tarjimai holining qisqa tafsilotlariga bag‘ishlanadi. Lirik qahramon o‘z umrini asov daryoga qiyoslaydi. Daryo suv g‘uborlarni yuvadi, gulu giyohga rang beradi. Lirik qahramon shularni o‘ylar ekan, vijdonini so‘roqqa tutdi. Xo‘sh, u insonlarga nima bera oldi? O‘zini daryoga qiyos qilishga u haqlimi? She‘rlari kimgadir tasalli bo‘ldimi yoki ularni o‘qigan qaysidir tashna qalbning chanqoq hislari qondimi? Savollarga javob berar ekan, unga qalbi, niyatlarining pok ekani qisman xotirjamlik beradi. U hech qachon yolg‘on yozmagan, maddohlik qilgan bo‘lsa ham, baribir o‘zidan qoniqmaydi, chunki insonlarga bundan-da ko‘proq foydasi tegishi mumkin edi. Lirik qahramon daryo suviga chin dildan havas qiladi, to‘lqinlarga “eritilgan bir tomchi olmosdek” kuy va nur bo‘lib qo‘shilib, uning olijanob missiyasida ishtirok etishni, qalb g‘uborlarini yuvishni istaydi. “Lirik nutq” shoiraning so‘nggi dostoni. Unda muallif qayta doston yoza olmasligini sezgandek. O‘z umrini, ijodini sarhisob etadi, qalb daftarini ochadi.

Saida Zununova she‘riyatiga sig‘magan tashnalik va haqiqatparaslik uning nasriy asarlarida ham namoyon bo‘ladi. Adibaning rostgo‘y shaxsiyati u yaratgan hikoya va qissalarning personajlari tabiatiga ko‘chdi. Ayniqsa, “So‘qmoqlar” qissasi o‘z davri hayoti muammolarini ro‘y-rost yoritib bergan asardir. Qissa adibaning davr voqeligiga, ijtimoiy-siyosiy hayotga faol munosabati, undagi ziddiyatlarni teran idrok eta olganligi mahsuli. Asarda muallif

e'tiborni asosan ikki masalaga qaratadi: birinchisi, mavjud ijtimoiy tuzimning majburiy ravishda tadbiq etayotgan siyosati va uning ayanchli oqibatlarini o'zbek ayollari hayoti misolida yoritish bo'lsa; ikkinchisi ildiz otgan ko'zbo'yamachilik, poraxo'rlik, loqaydlik, o'z vazifasini suiste'mol qilish kabi illatlarni keskin qoralash, har qadamda uchrab turuvchi bu illatlarni fosh etishdan iborat edi. Adiba qahramonlarini keskin kurashlar asosida ko'rsatmoqchi bo'lib, jamiyatning asl basharasini ochib tashlaydi.

Qissada Sharq xalqlariga xos bo'lgan ayollik sha'ni, qadr-qimmati toptalayotgani, uning oqibatlari sifatida hayotda ro'y berayotgan fojealar ta'sirchan bo'yoqlarda berilgan. Yagona sho'ro xalqini yaratish siyosati qat'iy yurgizilayotgan davrda millatning qadriyatlari, urf-odatlarini, ming yillar davomida shakllangan axloqiy mezonlari yo'qolib borayotganidan xavotirini yashirmay dadil yozish Saida Zununovaning ijodiy jasoratidan darak beradi. Shu o'rinda Said Ahmadning "So'qmoqlar" qissasi haqida yozgan "Qatag'on qilingan qissa" deb yozgan so'zboshi o'rnidagi maqolasini keltirib o'tishni lozim topdik:

Ushbu qissa bundan qirq yil oldin yozilgan. Muallif Saida Zununova shu asari uchun ta'nayi-malomatlariga qolgan edi. Matbuotda, adabiy yig'inlarda, Saida farovon zamonimizga tuhmat qiluvchi asar yozgan, deb ko'z ochirmagan edilar.

Albatta, "So'qmoq" qissasini noyob asar deb baholab bo'lmaydi. Shu bilan birga nochor, zararli, zamonamizga yot asar ham deb bo'lmaydi.

Asarning "aybi" shuki, u o'sha zamonlarda yozgan sip-silliq, hayotni pardozlab, faqat yaltiroq tomonlarini tasvirlagan asarlardan rostgo'yligi, keskinligi bilan farq qilishida xolos.

She'riyatda ancha pishib qolgan, yaxshi she'rlar yozayotgan Saidaning nasrdagi dastlabki asari sifatida baholaydigan bo'lsak, uni yaxshi nasriy asarlar qatoriga bimalol qo'yishsa bo'ladi deb aytish mumkin.

Qissada Saida o'sha paytlarda sira aytib bo'lmaydigan gaplarni yozishga nima majbur qildi ekan, degan savolga javob izlab ko'raylik.

Qissa adabiyotimizda konfliktisizlik ayniqsa avj olgan 50-60-yillarda o'quvchini o'ziga tortmaydigan, hayot muammolari chetlab o'tilgan, faqat hayotning yaltiroq tomonlarinigina aks ettirgan asarlarda sira o'xshamasligida deb bilish kerak.

1959 yil Moskvada o'tadigan o'zbek adabiyoti va san'ati o'n kunligiga shoshilinch, ha, bo'l, deb qistab yozdirilgan asarlar Maskva tomoshabinlari va adabiyotshunoslaridan ko'ngildagidek baho olmaydi.

San'atshunos olim va yozuvchi N.Klado: "...o'ttizinchi yillarda dehqonning ish quroli ketmon bilan omoch edi, hozir u qudratli traktorlar bilan yer haydaydi. Agar san'ati, adabiyotni unga qiyoslasak o'n kunlikka olib kelingan Uyg'unning "Oltinko'l" komediyasini hatto omoch deyishga ham tiling bormaydi" degan edi.

“Uzoqni ko‘zlagan qiz” qissasida ikki marta qahramon unvoniga sazovor bo‘lgan mashhur paxtakor Tursunoy Oxunovanning hayot yo‘li tasvirlanadi.

Saraton jaziramasida zaptiga olgan, bir nafas olishga tangadek soya topilmaydigan Mirzacho‘l dashtida yer ochayotgan, quyosh olovidan, dazmoldek qizigan traktorni minib motorning qaynoq alangasiga, butun vujudiga otash purkayotgan cho‘l shamoliga bardosh berib, har bir mo‘yi tagidan sizib chiqayotgan terdan ko‘ylaklari shalabbo bo‘lib ketganiga beparvo bu “cho‘l malikasi” chinakam “sovet qizi” edi.

Xotin-qizlarni yuqori lavozimlarga ko‘tarish boshlangan payt. Ularning aksari oilali go‘zal ayollar edi. Ularni haftalab, o‘n kunlab poytaxtga-plenumlarga, qurultoylarga olib ketardilar. Shuning uchun ham oilasi, bola chaqasi, deb o‘ylashmasdi. Begona erkak bilan ketgan xotinini o‘ylab ruhan ezilib o‘tirgan eri borligini o‘ylashmasdi. Oqibatda ularning turmushi buzilganini ko‘p marta ko‘rganmiz.

Axir buyuk shoirimiz G‘afur G‘ulom “Bizning xotinlarga hayo fazilat” deb bekorga aytmaganlar.

“So‘qmoqlar” qissasi ana shu ko‘ngilsiz voqealarga bir isyon bo‘lib dunyoga kelgan edi.

Qissa 1959 yilda yozilgan va o‘sha yiliyoq “Sharq yulduzi” jurnalida bosilgan edi.

Jurnal qo‘lma-qo‘l bo‘lib, qissa qiziqib o‘qilayotgan bir paytda saratonda yoqqan qordek bo‘lib “Sovet O‘zbekistoni” (Hozirgi “O‘zbekiston ovozi” gazetasi adabiyotshunos olim Matyoqub Qo‘shjonovning “Attang” degan maqolasi bosildi. Maqolada talantli yozuvchi Saida Zununovanning ushbu “So‘qmoqlar qissasida sovet voqeligiga yot bo‘lgan g‘oyani ko‘tarib chiqqani, halol mehnat qilayotgan sovet kishilariga tuhmatdan iborat sun‘iy voqealarni qalamga olgani keskin tanqid qilingan edi. Umidli yosh yozuvchining zararli asar yozganiga attang, deb afsuslangan edi.

Sal fursatdan keyin “So‘qmoqlar” sobiq O‘zbekiston partiya markaziy qo‘mitasi byurosi muhokamasiga qo‘yiladi. Unga asar muallifi Saida Zununova ham chaqiriladi. Ammo Markazqo‘mning ideologiya ishlari bo‘yicha kotibi Zuhra Rahimboboeva uni byuroga olib kirmaydi. Chunki o‘sha paytda Saida og‘ir oyoqli oy kuni yaqin edi. Rahimboboeva har qalay ayol kishi bo‘lganidan byuroda bo‘ladigan keskin gaplar Saidaga yomon tasir qilishi mumkin deb uni o‘z mashinasida uyga qaytarib yuboradi.

Byuro majlisi ham Saida Zununova zamonamizga yot, zararli asar yozganligini alohida qayd qiladi.

Mana, qirq yildirki, yaxshi niyat bilan yozilgan “So‘qmoqlar” qissasi qatag‘on qilingan asarlar qatorida arxivda qolib ketdi. O‘zbekiston mustaqil mamlakat sifatida tan olingan kunlardan beri qilinayotgan xayrli ishlardan biri, qatag‘onga uchraganu o‘zbek ziyolilarining

pok nomlarini tiklash, ularning asarlarini o'rganishi va nashr qilish sohasida ko'p savobli ishlar amalga oshirildi.

Ana shular qatori Saida Zununovaning "So'qmoqlar" qissasi ham qayta o'qilib unga bugungi kun ko'zi bilan qarab baho berildi. Asar haqida bundan qirq yil avval "Attang" degan maqola e'lon qilgan Matyoqub Qo'shjonov o'sha paytda zamona zayliga berilib qissaga to'g'ri baho bera olmaganini, uni zararli asar deb hato qilganini matbuotda ochiq tan olib gazetaxonlardan uzr so'radi.

Qissani qayta o'qigan boshqa yozuvchi va adabiyotshunoslar ham "So'qmoqlar" bugungi kunning asari deb aytmoqdalar.

Men bu asarni yozishimdan to bosilishigacha, tanqidga uchrab noto'g'ri baholangan kunlarga shohid bo'lgan kishi sifaatida asarni bir butun holda o'quvchilar qo'liga yetkazishni marhuma Saidaning ruhi oldidagi burchim deb bildim. Prezidentimiz Islom Karimov ma'naviyat masalalariga jiddiy e'tibor berayotgan shu kunlarda, onalar va bolalar muhofazasi ma'naviy hayotimizning chetda qoldirib bo'lmaydigan soha ekanini qayta-qayta tilga olinayti.

Ma'anviyat va ma'rifat markazining ochilishi uning viloyat, tuman va qishloqlardagi bo'limlari ma'naviyatning boshqa tarmoqlari qatorida ayollar madaniyatiga, ularning ruhiy olamiga yanada chuqurroq nazar solishlari zarur.

"So'qmoqlar" qissasida qalamga olingan juda jiddiy, juda dolzarb bo'lgan ayollar nomusini, o'ziga xos o'zbekona sharm-hayosini, nazokatini himoya qilishimiz va u hamisha diqqat markazida bo'lishini unutmasligimiz kerak.¹

Asarning "So'qmoqlar" deb nomlanishida ham ramziy ma'no bor. So'qmoqlar-hayotdagi adashishlar, bilib-bilmay xatolarga yo'l qo'yishlar. Lekin ana shu so'qmoqlardan o'tmasdan katta yo'lga chiqib bo'lmaydi. Insonga so'qmoqlardan o'tishga ko'maklashish esa uning katta yo'lga tezroq tushib olishiga yordam beradi.

O'z davrida qissa haqida bildirilgan tanqidiy fikrlarni tahlil qilib, asarning keskin tanqidga uchrashiga badiiylik talablariga javob bera olmagan emas, balki unda o'sha davrda aytish va yozish mumkin bo'lmagan hayotiy haqiqatlarning ochiq-oydin yoritilgani sabab bo'lgan.

¹ Саида Зуннунова. Танланган асарлар, Т., 2001 338-341-бетлар.

XULOSA

Ma'lumki, ijtimoiy-siyosiy hayotimizning barcha sohalari qatori xalq ma'naviyatining ko'zgusi bo'lmish badiiy ijod, xususan, badiiy adabiyot rivoji ham davlatning, ham jamiyatimizning doimiy e'tiborida bo'lib kelmoqda.

Mustabid tuzum davri nomlari, asarlari ta'qirlab qo'yilgan yozuvchi va shoirlarning xotirasi e'zozlanib, ularning adabiy merosi qaytadan tiklangani, tavallud sanalari keng nishonlanib kelayotgani fikrimizning isbotidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Yozuvchilar uyushmasi faoliyatining samaradorligini oshirish haqidagi fikr-mulohazalari esa Yurtboshimizning adabiyot va ma'naviyat masalalariga qanchalar e'tiborli ekanligini yana bir bor tasdig'idir. Prezidentimiz o'z fikr-mulohazalarida xalqimiz ma'naviyatimizning, milliy tafakkurimizning ajralmas qismi bo'lgan, kerak bo'lsa, uning o'zagini tashkil etadigan ona tilimizni, boy tarix va qadimiy an'analarga ega adabiyotimizni asrab-avaylab, rivojlantirib kelayotgan zahmatkash insonlar, ularning og'ir va mas'uliyatli mehnatlari haqida batafsil to'xtaldi.

Prezidentimiz o'z fikr-mulohazalarida quyidagilarni ta'kidladilar: biz shoir deganda, avvalo Alisher Navoiydek benazir zotlarni, yozuvchi deganda, Abdulla Qodiriy, Oybek singari o'z xalqi uchun nafaqat iste'dodi, ayni paytda bugun hayotini bag'ishlagan buyuk va mo'tabar insonlarni tasavvur etamiz.

Bir so'z bilan aytganda, xalqimiz adabiyotni muqaddas va ulug' bir dargoh deb biladi. Ana shunday bahoning o'zi el-yurtimiz hayotida bu soha namoyondalariga, ularning haqqoniy so'zi, chuqur ma'noli asarlariga ishonch, hurmat-e'tibor va ehtirom azaldan yuksak darajaga ko'tarilganini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Hech shubhasiz, ziyolilarning ilg'or qismi bo'lmish badiiy adabiyot vakillarining xalqimiz qalbini, uning oliy maqsadlari, bugungi hayoti, taqdiri va kelajagini yaqinda biladigan inson sifatida jamiyatimizdagi o'rni va ta'siri beqiyos.

Yurtboshimizning ushbu so'zlari elimizning ardoqli shoirasi, nasrda va nazmda tanho bo'lgan iste'dodli ijodkor Saida Zununova haqida ham aytilganday. Boisi talantli shoira, jozibali nasriy asarlar muallifi Saida Zununovanning "Qizingiz yozdi" (1948), "Yangi she'rlar" (1950), "Gullar vodiysi" (1954), "Qizlarjon", "Bir yil o'ylari" (1967), "Gulbahor" (1956), "Gulxan" (1958), "Olov" (1962), "Odamlar orasida" "Ko'chalar charog'on" (1965), "Go'dak hidi" (1986), "Tanlangan asarlar" (2001) kabi asarlari kitobxonlar qalbidan munosib joy olgan.

So'zlarga hassoslik, siqqlik, tabiiylik, yasama-sun'iy obrazlardan qochish Saida Zunnuova hikoyalariga husndir.

Ona vatanga sadoqat, mehnat va baxt, muhabbatni haqgo'ylik bilan kuylagan shoiraning lirik she'rlari, jozibador qo'shiqlari, nasriy asarlari adabiy xazinamizni boyitib kelmoqda.

Adiba asarlarining rus va xorijiy davlatlardagi xalqlar kitobxonlari o'z ona tillaridagidek sevib o'rganmoqdalar.

Ijodkor ayni kamolot yoshida 1977 yilda 51 yoshda bevaqt vafot etdi. Uning hassos nazmi, samimiy nasri o'zbek kitobxonlarining ma'naviy mulkiga aylanib qoldi.

Bizning tadqiqotimizning maqsadi Saida Zununova ijodida ijodkor shaxsiyati hamda lirik qahramon muammosini, shoira shaxsiyati va biografiyasining ijodiga ta'siri masalalarini ilmiy asosda tadqiq etishga bag'ishlangan.

Biz ishimizda ijodkor shaxsiyatiga xos bo'lgan eng muhim xususiyatlarni aniqlash, o'z navbatida bu xususiyatlarning ijodkor ijodida, yaratgan qahramonlari tabiatida aks etganlik darajasini tadqiq etishga, shoira ijodidagi kurashchan qahramon shaxsiyati qirralarini aniqlashga, haqiqat va adolat mavzularining badiiy talqinida ijodkor biografiyasining ta'sirini misollar yordamida dalilashga, Saida Zununova ijodi ayol mavzusiga e'tiborning kuchliligi hamda uning sabablarini aniqlashga, ijodkorning adabiy-estetik ideali va davr voqeliklariga munosabatini muayyan asarlar tahlili orqali ko'rsatishga, shoira dostonlarining badiiy xususiyatlarini, ularda shaxs va davr drammasi talqini masalalarini ko'rsatishga e'tibor qaratdik.

Ana shulardan kelib chiqqan holda quyidagi umumiy xulosalarga keldik.

1. Ijodkor shaxs ham, u yaratgan asar ham davr farzandi. Saida Zununova sho'ro davrida tug'ilib tarbiyalangani uchun dastlab o'z davri g'oyalarini to'la-to'kis qabul qildi, ilk asarlari shunday g'oyalar ta'siri asosida yaratildi. Shoira ikkinchi jahon urushi va 50-yillar qatag'oni, ular keltirgan cheksiz kulfatlarning ham guvoh, ham jabrdiydasi bo'ldi. Albatta, bu hol uning shaxs sifatida shakllanishiga, ijodiga, ijodiy prinsiplariga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

2. She'r shoirning voqelikka faol munosabatidan, kechinmasidan paydo bo'ldi. Har qanday she'rda shoir shaxsiyatining muayyan aksi bor. Saida Zununova ayollik baxtini avvalo oilada, farzand tarbiyasida deb bildi va ijodida ham shunday insoniy yumushni ulug'laydi. Ayolning oila va jamiyatdagi o'rni masalasi asarlarining mavzu mundarijasini belgilashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

3. Qatag'on yillarida shoira shaxsiyatida ko'ringan qat'iyat, sadoqat va insoniylik she'rlarining ruhiga ham ko'chib o'tdi. Bunday asarlar o'z davri adabiy jarayonida iz qoldirish bilan birga yosh adiba va shoiralarning ijodiga kuchli ta'sir o'tkazdi.

4. Lirik qahramon shoira shaxsiyatining obrazini, muallif tafakkurini anglatishning vositalaridan biri sifatida talqin qilinadi. Shu bois lirik qahramon muammosini tadqiq etganda ijodkor shaxs tabiatiga xos xususiyatlar uning she'rlarida qay daraja aks etganiga e'tibor qaratiladi.

5. Saida Zununovaning aksar she'rlarida shoira shaxsi va lirik qahramon o'rtasiga tenglik alomatini qo'yish mumkin. Bunday she'rlarda shoira yovuzlik va nohaqlikka qarshi ayovsiz kurashchi, yuksak insoniy fazilatlar egasi, ayollik baxtini hamma narsadan yuqori qo'yuvchi ijodkor sifatida gavdalangan bo'lsa, zamondoshlarning xotiralari va hamkasblarining e'tiroflarida bu xususiyat tugal tasdig'ini topdi.

6. Saida Zununova shaxsiyati, ijodi va lirik qahramoni tabiatida quyidagi uch muhim xususiyatni yaqqol kuzatish mumkin:

A / zamon zug'umi va unga munosabatda qat'iyat;

B / urush fojialari va shaxsiy dramalarning ijodiga ko'chishi;

V / ijtimoiy shaxs, fuqarolik burchi bilan barobar insoniylik, ayollik, onalik tuyg'usi kabi fazilatlarni saqlab qola olganligi.

7. Ijodkorning, ayniqsa ayol ijodkorlarning sherlariga shaxsiy zamin bo'lib xizmat qiladi. Xuddi shunday Saida Zununova sherlirining lirik qahramoniga ham muallif shaxsiyati, uning sinovlarda kechgan umri asos bo'lgan. Lirik qahramon nafaqat shoira shaxsiyatiga xos eng muhim sifatlarni, balki hayot yo'li, manaviy-ruhiy olami tadrijini ham o'zida mujassam etgan. Shu bilan birga, unda o'z davrining ilg'or va yetakchi qarashlari, g'oyalari, zamondoshlarining orzu-o'ylari ham yorqin aks etgan.

8. Shoira ijodiy merosida zamona zayli bilan yozilgan sherlar ham uchraydi. Bunday asarlar ijodining dastlabki yillariga tegishli bo'lib, yosh ijodkorda hali hayotni chuqur idrok etish, voqea-hodisalarni teran tahlil qilish tajribasi yetishmasliga, ilk izlanish, o'rganish yo'llari sifatida izohlanadi. Bundan tashqari, ijodkorning davr kishisi ekanligini, bu hol uning ijodida iz qoldirishini unutmaslik kerak.

9. Saida Zununova ayolni tabiatning bir bo'lagi sifatida tasavvur etadi. Uning murakkab ruhiy olamini butun ziddiyatlari, tebranishlari bilan berishda tabiat hodisalari va manzaralaridan unumli foydalanadi.

10. Shoira hayotda ham, ijodda ham ayol baxti muhabbatda, farzand tarbiyasi va oilada, degan qarashga amal qiladi. Bunday qarash uning ijodini malum mavzular doirasida cheklab qo'ymadi, balki ana shu uchun tushuncha ayollik olamini, manaviy-ruhiy olamini to'la to'kis kashf etishning muhim vositasi bo'ldi. Shoira, ayniqsa, onalik maqomini juda keng talqin etadi, chunki ona borliqdagi hamma narsada, hamma hodisada farzandi taqdiriga aloqador tomonlarni ko'radi, uning uchun dunyoda ahamiyatsiz narsaning o'zi yo'q.

11. Saida Zununova lirik asarlari qaysi mavzuda ekanligidan qati nazar shoiraning o'zigagina xos bo'lgan tasvir uslubi soddalik va ravonlik, fikr va tuyg'ular samimiyligi bor. Bu bazilar nazarida hozirgi modern sherlarga xos bo'lgan o'ta murakkab obrazlilik oldida jo'n

ko‘rinishi mumkindir. Lekin shoironing mahorati oddiylik bag‘ridagi go‘zallikni ilg‘ab olib, teran his etishida va undan badiiy qadriyat yaratib, kishilarni hayratga sola olishida ko‘rinadi.

12. Shoir sherlarining uslubi va badiiyatida ham uning betakror shaxsiyati sezilib turadi. Uning “Ruh bilan suhbat”, “Alla”, “Qo‘shnilarim” va “Lirik nutq” dostonlari ruhiy-psixologik asarlar bo‘lib ularda urush mavzusi yetakchili qisqada-da, insonlararo munosabatlar, shaxs taqdiri tahliliga ham keng o‘rin beriladi. Shoir shaxs bilan jamiyatni bir butunlikda idrok etadi va dostonlarida jamiyat fojiasi shaxs fojiasi ekanligi, shaxs fojiasi esa jamiyatning ham fojiasi ekanini mahorat bilan ko‘rsatib berishga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li // "Xalq so'zi", 2007, 31 avgust.
2. Karimov I. A. Yuksak manaviyat-engilmas kuch. T, "Manaviyat". 2008.
3. Adabiyotga etibor-manaviyatga, kelajakka etibor. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Yozuvchilar uyushmasi faoliyatining samaradorligini oshirish haqidagi fikr-mulohazalari. // "Jahon adabiyoti", 2009, 7-son.
4. Doniyorov X, Mirzaev S. Hayot va obrazlar. "Sharq yulduzi", 1957, 3-son.
5. Zamoshk N.I. O rasskazax Saidy Zunnunovoy, Shkola masterstva. Gosizdat.1960.
6. Hasanova X.Talantli adiba.T.1968.
7. Hasanova X. Saida Zunnunova.Adabiy portret.G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.T.1975.
8. Hasanova X.Go'zallik kuychisi.No'zik qalblar ehtirosi. T., "Fan", 1981.
9. G'afurov I.Shoiraning betinch o'ylari. "Sharq yulduzi", 1967,12-son.
10. G'afurov I.Tabiat qoshidagi o'ylar. "O'zbekiston madaniyati", 1973, 13 mart.
11. G'afurov I.E'tiqodning toza chashmasi. "Qishloq haqiqati", 1986, 25 aprel.
12. G'afurov I.Nazokat.O'ttiz yil izhori.T.G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
13. G'afurov I.Said Ahmad va Saida .
14. G'afurov I.Ayol nazokati. "Til va adabiyot ta'limi", 2006, 2-son.
15. Normatov U.Janrning talab va imkoniyatlari. "Sharq yulduzi", 1969,4-son.
16. Mamajonov S.Dostonda g'oya va epik tasvir ko'lami. "Sharq yulduzi", 1973,9-son.
17. Rahimjonov N.Davr va o'zbek lirikasi.T, "Fan", 1979.
18. Yegorov B.Biografiya dusha.M.Yu.Lotman.Sotvorenje Karamzina.M.1987.
19. Zunnunova S.Tanlangan asarlar.T. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976.
20. Said Ahmad.Biz shunday yashadik. "Yo'qotganlarim va topganlarim", T., "Sharq" NMK, 1989.
21. Ergasheva Sh.Saida Zunnunova she'rlarida muhabbat mavzusi. "Til va adabiyot ta'limi", 2006, 2-son.
22. Ergasheva Sh. Dostonlarda shoiraning dil rozlari.UZMU Xabarlar.T.2006, 4-SON.
23. Ergasheva Sh. Xotiralarda shoir siymosi. "O'zbek tili va adabiyoti", 2006, 4-son.
24. Ergasheva Sh.Ko'ngilning mohpaykari.T. "Universitet" nashriyoti, 2006.